

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
**Fakulteti dekani**  
**\_\_\_\_\_ L.Raupova**  
**“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil**

“5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi IV kurs talabasi **O‘rolova Mohichehra Abdukarim qizining**  
**“O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari”** mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Talaba \_\_\_\_\_ O‘rolova Mohichehra Abdukarim qizi**  
**Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ f.f.n, dotsent Gulnoza Jo‘rayeva**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**  
**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish**  
**metodikasi kafedrasini mudiri f.f.n**  
**\_\_\_\_\_ M.Abdullayeva**  
**“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 402-guruh talabasi **O'rolova Mohichehra Abdukarim qizining** "*O'quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari*" mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi haqida ilmiy rahbar **Gulnoza Jo'rayevaning**

## X U L O S A S I

Badiiy asarni o'rganishdagi eng muhim xususiyatlardan biri bu uning qahramonlarini o'rganish, tahlil qilish, baholay olishdir. Ta'lim tizimida buni talaba va o'quvchilar ongiga singdirish, ularni fikrlashga o'rgatish mutaxassislar va albatta, bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda ushbu vazifani bajarish yo'lida ko'plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqdaki, soha bo'yicha qilinayotgan tadqiqot ishlari ham so'zimiz isboti bo'la oladi.

**O'rolova Mohichehra Abdukarim qizining** "*O'quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari*" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ham aynan uzluksiz adabiy ta'limdagi epik asarlarni tahlil qilib, o'rganish yo'lidagi muhim ishdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismi an'anaviy - bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifasi, ishning ilmiy yangiligi, predmeti va obyekt, amaliy ahamiyati atroflicha yoritilgan. Tadqiqotchi adabiyotshunoslik va metodika sohalarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalariga hurmat bilan munosabatda bo'lgan va ularga nazariy asos sifatida tayangan.

Ishning birinchi bobi "Adabiyot darslarida epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslari" deb nomlangan. U ikki faslga bo'linib, birinchi faslda badiiy asarni talqin va tahlil qilishning asosiy vazifalari haqida ma'lumot berib, yoshlarda badiiy asar his etish, tushunish tahlil va talqin qilish tamoyillari haqida ma'lumot beradi.

"Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me'yoriy asoslari" deb nomlangan ikkinchi faslida epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni

o‘zgacha estetik nazar bilan ko‘rish, o‘quvchilarni xilma-xil ijodiy yo‘nalishdagi, turli janrlardagi badiiy asarlarni qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishning usullari haqida to‘xtalib o‘tadi.

Tadqiqotchi o‘z fikr-mulohazalari, kuzatish va tajriibalarini mantiqli va asosli tarzda bayon qila olgan. U ayrim farazlarini isbotlashda ilmiy va badiiy adabiyotlardan unumli foydalangan. Mavjud bilimlarni umumlashtirish bilangina cheklanmay, ularni muayyan darajada rivojlantirgan, o‘z mustaqil qarashlarini dadil ifodalay olgan.

Ishning ikkinchi bobi “Epik asarlarni tahlil qilish usullari” deb nomlanib, unda epik turning hikoya, qissa va roman janrlarini tahlil va talqin etishning usullari haqida fikr yuritadi.

Ishning uchinchi bobi “Tajriba-sinov ishlari samaradorligi” deb nomlangan. Unda yuqorida tavsiya qilingan usullarni amaliyot jarayonida erishilgan natijalar asosida yoritib bergan. Bitiruvchi 5-sinfda “Mening o‘g‘rigina bolam” hamda 10-sinfda “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishish” mavzulari yordamida tajriba – sinov ishlarini amalga oshirgan. O‘tkazilgan tajriba – sinov ishlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini jadvallar asosida foiz ko‘rsatkichlarida ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Tadqiqotning xulosa qismida boblardagi fikr-mulohazalar umumlashtirilgan.

Umuman, ushbu bitiruv malakaviy ishida tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni imkon qadar qamrab olishga, chuqur tadqiq etishga intilgan. Asar qahramonlariga xos muhim xususiyatlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash tarzini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqot ishi o‘ziga xos uslub va ravon tilda yozilgan. Shu o‘rinda ayrim ishoraviy va imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu ishning umumiy darajasiga zarar yetkazmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi tugallangan tadqiqot sifatida talablarga javob bera oladi. Ishni himoyaga tavsiya qilaman.

**Ilmiy rahbar:**



**f.f.n., dotsent G.Jo‘rayeva**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitet  
O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining 402- guruh talabasi O‘rolova Mohichehraning  
“O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish  
va rivojlantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturning hayotga tatbiq etilishi samarasi o‘laroq, yoshlarimiz Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik yaratuvchan va tashabbuskor bo‘ladi. Fikr kishisi hamisha o‘z qarashlarini asoslaydi, kerak bo‘lganda himoya qiladi. Shuning uchun mamlakatimizda mustaqil fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Badiiy asar ,ayniqsa, epik asarlarni o‘rganishdagi eng muhim xususiyatlardan biri bu uning qahramonlarini o‘rganish, tahlil qilish, baholay olishdir. Ta’lim tizimida buni talaba va o‘quvchilar ongiga singdirish, ularni fikrlashga o‘rgatish mutaxassislar va albatta, bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda ushbu vazifani bajarish yo‘lida ko‘plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqdaki, soha bo‘yicha qilinayotgan tadqiqot ishlari ham so‘zimiz isboti bo‘la oladi.

O‘rolova Mohichehra Abdulkarim qizining “O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini ham aynan uzluksiz adabiy ta’limdagi epik asarlardagi badiiy asar qahramonlarini tahlil qilish, o‘rganish, ularni tanqidiy baholash bo‘yicha ahamiyatli tadqiqot ishlaridan biri, desa bo‘ladi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi ham ushbu talablarga hamohang tarzda dolzarb ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob va xulosadan tarkib topgan, ish so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

“Adabiyot darslarida epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslari” masalasiga bag‘ishlangan birinchi bob ikki fasldan iborat bo‘lib, birinchi faslda badiiy adabiyotning funksiyalari, o‘quv va didaktik tahlil tamoyillari, tahlilning qanday maqsadda amalga oshirilishiga ko‘ra turlari atroflicha yoritib berilgan.



“Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me’yoriy asoslari” deb nomlangan ikkinchi faslida epik asarlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni tahlil qilishda tur va janr xususiyatlarini inobatga olish masalasi, shuningdek, epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o‘zgacha estetik nazar bilan ko‘rish, o‘quvchilarni xilma-xil ijodiy yo‘nalishdagi, turli janrlardagi badiiy asarlarni qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishning usullari haqida to‘xtalib o‘tadi.

Ishning ikkinchi bobi “Epik asarlarni tahlil qilish usullari” deb nomlanib, unda epik turning hikoya, qissa va roman janrlarini tahlil va talqin etishning usullari haqida fikr yuritadi.

Ishning uchinchi bobi “Tajriba-sinov ishlari samaradorligi” deb nomlangan. Unda yuqorida tavsiya qilingan usullarni amaliyot jarayonida erishilgan natijalar asosida yoritib bergan. Bitiruvchi 5-sinfda “Mening o‘g‘rigina bolam” hamda 10-sinfda “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishish” mavzulari yordamida tajriba – sinov ishlarini amalga oshirgan. O‘tkazilgan tajriba – sinov ishlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini jadvallar asosida foiz ko‘rsatkichlarida ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni imkon qadar qamrab olishga, chuqur tadqiq etishga intilgan. Tadqiqotning xulosa qismida boblardagi fikr-mulohazalar umumlashtirilgan. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsadga erishilgan. Shu o‘rinda ayrim ishoraviy va imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu ishning umumiy mazmuniga zarar yetkazmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi tugallangan tadqiqot sifatida talablarga javob beradi, deb hisoblayman va tugallangan bitiruv malakaviy ishi sifatida yuqori bahoga tavsiya qilaman.



Mirobod tuman 218-maktab  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
M.Isroilova

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining 402- guruh talabasi O‘rolova Mohichehraning  
“O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish  
va rivojlantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ta’lim-tarbiyaga e’tibor, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, kelajak avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Inson tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan soha sifatida adabiyotga e’tibor har qachongidan ko‘ra zaruratga aylandi. Bu, albatta, quvonarli hol. Darhaqiqat, insonning tafakkuri qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik yaratuvchan va tashabbuskor bo‘ladi. Badiiy asarni o‘rganishdagi eng muhim xususiyatlardan biri bu uning qahramonlarini o‘rganish, tahlil va talqin qilish baholay olishdir. Shu nuqtayi nazardan O‘rolova Mohichehraning “O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ham aynan uzluksiz adabiy ta’limdagi epik asarlarni tahlil qilib, o‘rganish yo‘lidagi muhim ishdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning kirish qismi an’anaviy - bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, ishning maqsadi, vazifasi, ishning ilmiy yangiligi, predmeti va obykti, amaliy ahamiyati atroflicha yoritilgan.

Ishning birinchi bobi “Adabiyot darslarida epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslari” deb nomlangan. U ikki faslga bo‘linib, birinchi faslda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” kabi Qonunlarda, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari bo‘yicha hukumat ko‘rsatmalari va qarorlarida yosh avlodni ma’nan yuksak, har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini yoritib beradi. Shunigdek, badiiy asarni talqin va tahlil qilishning

asosiy vazifalari haqida ma'lumot berib, yoshlarda badiiy asar his etish, tushunish tahlil va talqin qilish tamoyillari haqida ma'lumot beradi.

“Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me'yoriy asoslari” deb nomlangan ikkinchi faslida epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o'zgacha estetik nazar bilan ko'rish, o'quvchilarni xilma-xil ijodiy yo'nalishdagi, turli janrlardagi badiiy asarlarni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishning usullari haqida to'xtalib o'tadi.

Ishning ikkinchi bobi “Epik asarlarni tahlil qilish usullari” deb nomlanib, unda epik turning hikoya, qissa va roman janrlarini tahlil va talqin etishning usullari haqida fikr yuritadi. Bitiruvchining “Ilmiy tahlil adabiyotshunosning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili odamlar bilan muloqot mobaynida amalga oshiriladi. Didaktik tahlilning vazifasi badiiy asarning jozibasi, o'ziga xosligi, ta'sir kuchi sabablarini aniqlash orqali o'quvchilarda sohir qalb, hassos tuyg'ular, ravon va ifodali nutqni shakllantirishdir. O'quvchining estetik tarbiyasini faollashtirish, didini o'stirish orqali uning shaxsini barkamollashtirishdir”, - degan fikrlari e'tiborlidir.

Ishning uchinchi bobi “Tajriba-sinov ishlari samaradorligi” deb nomlangan. Unda yuqorida tavsiya qilingan usullarni amaliyot jarayonida erishilgan natijalar asosida yoritib bergan. Bitiruvchi 5-sinfda “Mening o'g'rigina bolam” hamda 10-sinfda “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishish” mavzulari yordamida tajriba – sinov ishlarini amalga oshirgan. O'tkazilgan tajriba – sinov ishlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini jadvallar asosida foiz ko'rsatkichlarida ko'rsatib berishga harakat qilgan.

BMIning xulosa qismida keltirilgan mulohazalar umumlashtirilib, adabiy asarni tahlil va talqin qilishning ta'lim bosqichlarida o'qitish tizimi bo'yicha yakuniy xulosalar berilgan. Ishda qayd etilgan yutuqlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham uchraydi. Ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

Ba'zi o'rinlarda imlo va tinish belgilari bilan bog'liq xatolar uchraydi. Adabiyotlar ro'yxatini alifbo tartibida to'g'rilash kerak Ularni himoyaga qadar bartaraf etish mumkin.

Umuman olganda, O'rolova Mohichehraning "Epik asarlarni tahlil qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari" mavzusidagi tadqiqoti qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi. Ish mustaqil tayyorlangan va tugallangan bitiruv malakaviy ishi sifatida yuqori bahoga loyiq.

**Taqrizchi:**



**f.f.d. dost. D.Xoldorov**



# M U N D A R I J A

|                     |     |
|---------------------|-----|
| <b>KIRISH</b> ..... | 3-7 |
|---------------------|-----|

## **I BOB. ADABIYOT DARSLARIDA EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISHNING ILMIY VA METODIK ASOSLARI**

|   |       |
|---|-------|
| 1.1. O‘quv va didaktik tahlil tamoyillari.....                          | 8-15  |
| 1.2. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me‘yoriy asoslari..... | 15-21 |

## **II BOB. EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI**

|  |       |
|--|-------|
| 2.1. Hikoya janriga oid bo‘lgan asarlar tahlilini amalga oshirish usullari<br>(G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi<br>misolida).....              | 22-30 |
| 2.2. Qissa janriga oid bo‘lgan asarlar tahliliga innovatsion yondashuv<br>(Ch. Aytmatovning “Oq kema” qissasi asosida).....  | 30-39 |
| 2.3. Roman janriga oid bo‘lgan asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni<br>shakllantirish usullari (O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani<br>misolida)..... | 39-49 |

## **III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI**

|  |       |
|--|-------|
| 3.1. Tajriba – sinov materiallari..... | 50-64 |
| 3.2. Tajriba-sinov natijalari.....     | 64-65 |

|                     |       |
|---------------------|-------|
| <b>XULOSA</b> ..... | 66-69 |
|---------------------|-------|

|   |       |
|---|-------|
| Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati..... | 70-72 |
|---|-------|

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Istiqlol yillarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ko‘rilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasida ta’lim tizimi rivojlanishning o‘ziga xos yangi yo‘liga kirmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta’lim sohasida jiddiy qadam edi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> ta’lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar belgilangan. Jumladan, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsni intellektual, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta’lim tizimini, ayniqsa, umumiy ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iboratdir. Ta’lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda umumta’lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, shu orqali o‘quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish, ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta’lim olish ehtiyojining kuchayishi O‘zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta’lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

Ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, zamon talablariga javob bera oladigan malakali milliy kadrlar tayyorlash bu islohotlarning mohiyatini tashkil etadi. Bu borada ajdodlarimiz qoldirgan va bugungi kunda yaratilayotgan boy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон.

adabiy merosni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ana shunday ma'naviy merosni o'rganish jarayoni esa, sir emaski, adabiyot darslarida ro'y beradi. O'quvchilarimiz aynan adabiyot darslari orqali o'z ma'naviyatini, dunyoqarashini, odob-axloq me'yorlarini, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantirib boradilar. Shunday ekan, ushbu jarayonda maktabda o'rganilishi ko'zda tutilgan asarlarni ilmiy va estetik jihatdan to'g'ri tahlil etish hal qiluvchi o'rin tutishi va adabiy asarlar tahlili va unga xos bo'lgan xususiyatlarni tadqiq etish adabiy ta'lim amaliyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi tabiiydir. Mana shu xususiyatdan kelib chiqqan holda, adabiy ta'limdagi hozirgi jiddiy o'zgarishlar va yangilangan pedagogik tafakkur tarzi maktabda o'rganilishi ko'zda tutiladigan badiiy asarlar tahliliga yangicha tamoyillar asosida yondashish kerakligini taqozo etadi. Shuningdek, yosh avlodga qaratilayotgan e'tibor haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi jonkuyarlik bilan aytgan gaplarini keltirish mumkin: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz."<sup>2</sup> Chunki farzandlari sog'lom va ta'lim sohasi rivojlangan davlatning yoshlari barkamol, kelajagi kafolatli ekanligi hech kimga sir emas.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Shu kunga qadar adabiyot o'qitish metodikasida T.Boboyev, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, B.To'xliyev, S.Matchonov tomonidan yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olimlarimizning ilmiy ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Qozoqboy Yo'ldoshovning ishida maktab adabiy ta'limini yangilashning metodik asoslari va yangicha pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida tarbiya va uning asosiy omillari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi munosabatida pedagogik hamkorlik qilishi, bu jarayonda har bir bolani o'z-o'ziga

---

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 14-b.

tanitish, o'zini taftish qilish, qiziqishlarini aniqlash, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish usullari tavsiya etilgan. Bu jarayonda o'z-o'zidan o'quvchi shaxsi mustaqilligi va tafakkurining erkinligi yetakchilik qiladi.<sup>3</sup>

S.Matjonovning tadqiqot ishi bevosita o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, bu jarayon ijodiy tafakkurni o'stirish omili ekanligi, adabiyot darslarida o'quvchilarni og'zaki va yozma ijodiy ishlarga undash ularning kamoloti yo'lida muhim ahamiyat kasb etishi tekshiriladi. Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o'z nuqtayi nazari bo'lmagan o'quvchi ijod qilolmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi.<sup>4</sup>

M.Mirqosimovning doktorlik ishi o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, buning zahirida ham o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stirish, ijodiy qobiliyatini tarbiyalash yotadi. Ishda taqdim etilgan asarlarning qiyosiy tahlili, muammoli ta'lim, munozara dars, seminar dars, mustaqil ishlar ham bevosita o'quvchining mustaqil tafakkuri shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.<sup>5</sup>

Maktabda o'rganiladigan adabiy asarlarni tahlil qilishning asoslarini ishlab chiqishda milliy pedagogikamiz va adabiyotshunosligimizda mavjud bo'lgan muayyan tajribadan foydalangan holda o'zgarib borayotgan davr beradigan imkoniyatlar darajasida ish ko'rish ko'zda tutiladi. Xususan, S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov singari mashhur usuliyotchi olimlar tomonidan yaratilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida, A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov kabi mualliflar tomonidan yozilgan va 1992-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida badiiy asarlarni maktabda o'rganish yo'llari haqidagi kuzatishlar, A.Zunnunovning adabiyot o'qituvchilar uchun yozilgan "Badiiy asar tahlili

---

<sup>3</sup> Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: 1996.

<sup>4</sup> Матхонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. доктори... дисс. - Тошкент: 1998.

<sup>5</sup> Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: 1995.



metodikasi” kitobi, metodist olimi M.Mirqosimovning “Adabiy tahlil metodikasi”, “Badiiy tahlil usullari” singari risolalari va boshqa bir qator tadqiqotlar biz uchun muhim ahamiyatga molik ekanligini ta’kidlash joiz.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** ta’lim olishning umumiy o’rta ta’lim bosqichida epik asarlarni tahlil qilishga oid ko’nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullarini o’rganish, epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslarini, tamoyillarini, metodik va me’yoriy asoslarini o’rganish, shuningdek, ushbu o’rganishlarimiz asosida epik asarlar: hikoya, qissa va roman kabi turlarini tahlil qilish usullarini tavsiya etish, ushbu tavsiyalarimiz asosida tajriba-sinov ishlarini o’tkazish hamda ularning samaradorlik darajasini o’rganishdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:**

1. O’quv va didaktik tahlilning tamoyillari bilan tanishtirish
2. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me’yoriy asoslari bilan tanishish
3. Epik asarlar: hikoya, qissa, roman kabi asarlarni tahlil qilish usullarini tavsiya etish
4. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida tajriba-sinov ishlarini olib borish
5. O’tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- o’quv va didaktik tahlilning tamoyillari o’rganilgan;
- epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me’yoriy asoslari haqida ma’lumot berilgan;
- hikoya janriga oid bo’lgan asarlarni tahlil qilish usullari ishlab chiqilgan;
- qissa janriga oid bo’lgan asarlarni tahlil qilish usullari ishlab chiqilgan;
- roman janriga oid bo’lgan asarlarni tahlil qilish usullari ishlab chiqilgan.
- ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida tajriba-sinov ishlari o’tkazilgan va ular tahlil etilgan.

**Tadqiqot predmeti va obyekt.** Tadqiqotning obyekt 5-11-sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilish jarayoni, predmeti badiiy asarlarni tahlil qilishga oid usul va innovatsion metodlar, tavsiyalar.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ta'lim jarayonida tavsiya qilingan hikoya, qissa, roman kabi janrdagi epik asalarni tahlil qilishning usul va interfaol metodlaridan foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## I BOB. ADABIYOT DARSLARIDA EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISHNING ILMIY VA METODIK ASOSLARI

### 1.1. O‘QUV VA DIDAKTIK TAHLIL TAMOYILLARI

Istiqlol yillarida ta’lim tizimida bir qator ishlar amalga oshirildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so‘ng o‘rta umumta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlardan davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta’limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o‘quv dasturlari bilan belgilangan, o‘quv-metodik tadbirlar darslik va qo‘llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”<sup>6</sup>, “Ta’lim to‘g‘risida”<sup>7</sup>gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunlarda, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari bo‘yicha hukumat ko‘rsatmalari, qarorlarida yosh avlodni ma’nan yuksak, har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash muhim vazifa ekanligini dalillaydi. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda ta’kidlanganidek: “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”<sup>8</sup>, muhim masalalardan biridir.

Umumta’lim maktabda adabiy ta’limining g‘oyat muhim vazifalaridan biri adabiyot o‘qitishning bosh maqsadini professor Q.Yo‘ldoshev to‘g‘ri belgilab bergan edi: “...**barkamol shaxsni shakllantirish** marrasi milliy maktablarimizda adabiyot o‘quv predmetini o‘rganish uchun **bosh maqsad** bo‘lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma’naviy an’analarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga chuqur singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi”<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.

<sup>8</sup> “Xalq so‘zi” gazetasi. 2016-yil 15-sentabr, 182 (6617)-soni

<sup>9</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O qituvchi, 1996. 42-bet.

Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta'lim, balki O'zbekiston maktablaridagi barcha fanlarni o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsaddir.

Ma'lumki, hozirgi paytda umumta'lim maktablarida adabiyot ta'limi mazmunan xalq og'zaki ijodi, eng qadimgi (islomgacha bo'lgan) davr adabiyoti, mumtoz adabiyot hamda yangi davr adabiyoti tarzida o'qitilmoqda.

Demak, umumta'lim maktablarida adabiyot darslari orqali o'zbek va jahon adabiyoti vakillarining hayoti va ijodiga oid bo'lgan ma'lumotlar, ularning asarlaridan namunalar keltirilmoqda. Ammo har bir tanishtirilayotgan badiiy asarni o'quvchi darsdan so'ng ham katta qiziqish bilan topib, uning to'liq holatini mutolaa qilishga harakat qilmoqdami, yoki darslikda berilgan parchani shunchaki satrlarni ko'z yugurtirib chiqish uchun, o'qituvchisi asar haqida biror ma'lumotni so'rab qolganda javob berish uchun o'qib chiqadi, xolosmi? Ushbu o'rinda o'quvchining o'rganilayotgan badiiy asarni o'zlashtirishi, undan estetik zavq ola bilishi va ma'naviy oziqlanishi uchun adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonni o'ta mohirlik bilan tashkil etish esa o'qituvchiga, uning qobiliyatiga va tajribaliligiga bog'liqdir.

Shu o'rinda biz bitiruv malakviy ishimizning ushbu bobida o'quv va didaktik tahlilning muhim jihatlari hamda o'quv va didaktik tahlilning tamoyillari haqida ma'lumot berishni joiz deb bildik.

Eng avvalo badiiy asar o'zi nima degan savolga javob bersak. O'rganishlarimiz asosida Q. Yo'ldosh va M. Yo'ldoshlarning "Badiiy tahlil asoslari" nomli asarida badiiy asar tushunchasiga quyidagicha mukammal ta'rif berilganligi bilan tanishdik: "Estetik jihatdan maqsadga yo'naltirilib, obrazlar vositasida kishi ruhiyati va tafakkuriga ta'sir ko'rsata oladigan, muayyan mantiqiy tugallik hamda badiiy o'ziga xoslikka ega teran mazmun va ta'sirchan shakldan iborat yaratilgan badiiy asar deyiladi"<sup>10</sup>.

Bashariyatning azaliy va abadiy ezgu istaklaridan biri o'zini va o'zi yashab turgan jamiyatni mukammal ko'rish bo'lsa, badiiy adabiyotning eng muhim

---

<sup>10</sup> Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.: Kamalak, 2016. 27-bet.



vazifasi inson va jamiyatni mukammal bo'lishiga xizmat qilishdir. Shunga ko'ra, badiiy adabiyotning quyidagi funksiyalari mavjud:

1. Bilish (evristik) funksiyasi
2. Badiiy-konseptual funksiyasi
3. Kommunikativ funsiya
4. Tarbiyaviy (didaktik) funksiyasi
5. Badiiy bashorat
6. Estetik funksiyasi

Badiiy asarning qanday bo'lishi, uning funksiyalari haqida ma'lumot berish barobarida, keyingi o'rinlarda biz badiiy asar tahlili va uning tamoyillari haqida ma'lumot berishni joiz deb bildik.

*Adabiy asarning yozilgan hamda tekshirilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan intellektual-hissiy faoliyat badiiy tahlildir.* Adabiy tahlilga ana shu tariqa ta'rif berilganda, hodisaga deyarli barcha asosiy xususiyatlar qamrab olinadi. Ya'ni, tahlil deyilganda badiiy matnning ma'nosi va jozibasining halollab berilishi, kitobxonga begona bo'lgan matnни ilmiy mantiq kuchi bilan eritib, uning shuuriga joylashga qaratilgan faoliyat ko'zda tutiladi. San'at asaridan kelib chiqadigan hayotiy ma'noni topish, undagi o'ziga xos betakror estetik unsurlarni kashf etish, o'rganilayotgan asarning shu siradagi boshqa bitiklardan farqini aniqlash, milliy yoki umuminsoniy badiiy tafakkurni rivojlantirishga qo'shgan hissasini ko'rsatish g'oyat muhim. Ayni vaqtda, badiiy zavq manbai nimada ekanini, kitobxonni muayyan asardan ta'sirlanishga olib kelgan badiiy omillar, ko'rkam so'zning mantiqiy tushunchalar doirasiga sig'maydigan jozibasi qayerdan kelib chiqayotganini aniqlash ham o'ta ahamiyatlidir.

Badiiy tahlilning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga ko'ra:

1. Ilmiy (filologik);
2. O'quv (didaktik) tahlil singari ikki turi mavjud.

Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asarning yozilgan hamda o'rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglashga

yoʻnaltirilgan intellektual-hissiy xulosalarning adabiyotda yaratuvchanlik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirlayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan boʻlishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda oʻrganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi oʻrni va milliy tafakkur taraqqiyotiga taʼsiri darajasi tayin etilishi koʻzda tutilishi kerak.

Oʻquv-didaktik tahlil esa badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantigʻi hamda estetik oʻziga xosligini anglash orqali oʻquvchilarda ezgu maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. Oʻquv tahlili mobaynida tahlil kechimini boshqarayotgan oʻqituvchi ham, shu kechimning ijrochi va qatnashchilari boʻlmish oʻquvchilar ham asarni tanlash imkoniga ega emaslar. Chunki oʻrganilishi kerak boʻlgan badiiy asar oʻquv dasturida belgilab qoʻyiladi. Shuningdek oʻquv tahlili belgilangan vaqt davomida muayyan joyda, yosh va intellektual darajasi bir-biriga yaqin boʻlgan oʻquvchi yoki talabalar oʻrtasida jamoaviy tarzda amalga oshirilishi koʻzda tutiladi.

Didaktik tahlil filologik tahlilga nisbatan bir qator tashkiliy-mazmuniy cheklovlari borligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida taʼkidlash zarurki, oʻquv tahlili hamisha ***“oʻquvchi yoki talabalarda ezgu maʼnaviy sifatlarni shakllantirish”***ga qaratilgan “pedagogik faoliyat” hisoblanadi.

Badiiy asarni nafosat talablariga muvofiq tarzda tahlil etish kechimida rioya etilishi shart boʻlgan muayyan talablar tizimi mavjudki, ularga amal qilmaslik uning keragiday tahlil etilmasligiga sabab boʻlishi mumkin. Tildagi tamoyil tushunchasi biror faoliyatning yuzaga kelishi uchun shart boʻlgan talablar yigʻmasini anglatadi. Badiiy asarning hayotiy, badiiy mantigʻi hamda estetik jozibasi muayyan tamoyillarga suyangan holda amalga oshirilgan faoliyat natijasida ochiladi. Badiiy asarning butun sehr-u jozibasi toʻliq namoyon boʻlishi, oʻrganilayotgan asarning mazmunigina emas, balki unda aks ettirilgan inson ruhiyati manzaralari ham toʻla anglashilishi uchun badiiy tahlil amalga oshirilganda, muayyan ilmiy tamoyillarga tayanilishi kerak. Q. Yoʻldosh va

M. Yoʻldoshlarning badiiy asar tahliliga bagʻishlab yozilgan asarlarida badiiy asar tahlilining quyidagi tamoyillariga izoh berilgan<sup>11</sup>:

**Har qanday tahlilning tugal boʻlmasligi tamoyili.** Chinakam badiiy matn turli zamonalarda ham oʻz umri bilan yashayveradi. U matnni idrok etgan avlodning saviyasi, didi, intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli davrlarda turlicha qabul etilishi mumkin. Hatto, baʼzan bir asarning oʻzi bitta odamning oʻzi tomonidan ham kayfiyatining qandayligiga qarab har vaqtda turlicha idrok etilishi mumkinki, bu hol, bir tomondan, asl badiiy matnning saviyasiga bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, estetik isteʼmolchining kayfiyati va intellektining oʻzgaruvchanligi natijasidir. Turli davrlarda idrok etilgan ayni matn turlicha qabul qilinib, turfa talqinini topaverishi tabiiy holdir. Demak, badiiy matnning tahlili hech qachon toʻliq tugallikka ega boʻlmaydi.

Badiiy asar tahlilida amal qilinadigan ikkinchi tamoyil **har qanday ilmiy tahlil faqat shaxsiy fikr ifodasi boʻlib, u hech qachon mutlaq haqiqatlik daʼvosini qilishi mumkin emasligidir.** Tahlilni olib boruvchi qanchalik bilimdon, tajribali va mohir boʻlishiga qaramay, u amalga oshirgan tahlil shaxsiy mulohaza, subyektiv qarash maqomida boʻladi. Ilmiy haqiqatlar koʻpchilik tomonidan birday qabul etilish xususiyatiga ega boʻlsa, estetik haqiqatlar haqida bunday deb boʻlmaydi. Har bir oʻquvchi, kitobxon, mutaxassis har qanday asarni oʻzicha oʻqiydi, oʻzicha tushunadi, oʻzicha taʼsirlanadi, oʻzicha his etadi, demakki, oʻzicha xulosa ham chiqaradi. Bir asarni oʻqigan koʻpchilik kishilar oʻrtasida u haqda oʻzaro oʻxshash, bir-biriga toʻgʻri keladigan qarashlar boʻlgani singari, bir-birini mutlaqo inkor etadigan fikrlar boʻlishi ham mumkin ekanligini tabiiy hol deb qabul qilish lozim.

Adabiy asarning ilmiy tahlili oldiga qoʻyiladigan talablardan uchinchisi **sanʼat asarining estetik hodisa ekanligidan kelib chiqib, unga biror gʻoyani ifodalash vositasigina deb qarash mumkin emasligidir.** Oʻzbek adabiyotshunosligi va filologik taʼlimida hanuzgacha ham sanʼat asarlariga ijtimoiy-gʻoyaviy yondashuv ustuvor mavqeda turibdi va har qanday badiiy asarga

---

<sup>11</sup> Qozoqboym Yoʻldosh, Muhayyo Yoʻldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.: Kamalak, 2016. 74-bet.

ko‘proq qandaydir g‘oyani o‘tkazish yo‘li deb qaralmoqda. Badiiy tahlil amaliyotda ancha uzoq davom etadiganga o‘xshab ko‘rinadigan bunday yondashuv badiiy asarning o‘ziga xosligi, jozibasini, zavqliligi singari yozuvchining mahorati namoyon bo‘ladigan jihatlarni e‘tibordan chetga surib, asardan g‘oya qidirishni taqozo etishi bilan butun boshli estetik hodisani muayyan bir qarashni ifodalashning vositasigina hisoblab, qadrini tushiradi.

Badiiy asarlar tahlilida tayanilishi zarur talablardan yana biri **san‘at hodisalariga borliqning nusxasi tarzida munosabatda bo‘lish kerakligi** tamoyilidir. San‘at asarini voqelik bilan, real borliq bilan solishtirib baholash, undan hayotning badiiy nusxasi bo‘lishni talab qilishning ildiziga borib taqaladi. San‘at hodisasini ijodkorning tabiat yoki ijtimoiy hayotga taqlididan iborat deb tushinish tadqiqotchidan har qanday asarga uning voqelikka mos kelishi yoxud kelmasligi nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi. Buyuk mutafakkir Aristotel yashagan zamonlardayoq odamlarga san‘at hodisalarining hayotga hamisha ham muvofiq kelavermasligi ma‘lum bo‘lgan va buni allomaning o‘zi Sofokl hamda Evripid tragediyalarini qiyoslash munosabati bilan ta‘kidlagan edi.

Badiiy tahlilni amalga oshirishda **emotsionallik yoki hissiylik tamoyili** ham katta o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotning o‘zi – hissiyotga asoslangan hodisa demak, badiiy tahlilda hissiyotni ko‘zda tutish muhim. Tahlilda hissiyot hisobga olinmaydigan bo‘lsa, badiiy asarning estetik o‘ziga xosligi nazardan chetdan qoladi. Asarning badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasini ochishga qaratilgan har bir tadbir kishining tuyg‘ulari olamiga daxl qilib, ularda muayyan hissiyotlar uyg‘otadigan yo‘sinda uyushtirilsagina maqsadga erishiladi.

Badiiy tahlilning yana bir muhim tamoyili bu **yaxlitlik** tamoyilidir. Yaxlitlik talabi, avvalo, o‘rganiladigan badiiy asarga istalgancha tarkibiy qismlarga ajratib tashlayverish o‘rinli bo‘lmaydigan estetik butunlik tarzida yondashishni taqozo qiladi. Darhaqiqat, har qanday asl san‘at asari buzilmas yaxlitlikdan iboratdir. San‘at asarining ichki butunligiga daxl qilinmagandagina uning asl mohiyatini to‘g‘ri anglash mumkin bo‘ladi. Buning ustiga, badiiy tahlil yordamida estetik



haqiqatlarni bilib qo'yishgina emas, balki ular yordamida shaxs ma'naviyatini yaxlit holda shakllantirilishi hisobga olinishi zarur.

Badiiy tahlilda amal qilinishi zarur bo'lgan tamoyillardan yana biri **tizimlilik**dir. Tizimlilik prinsipi yaxlitlik tamoyilining mantiqiy davomi bo'lib, tahlil kechimidagi badiiy asarni tashkil etgan unsurlarning muayyan tizimli ko'rinishga ega bo'lishi hisobga olinishini talab qiladi. Asl san'at asarida biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan biror badiiy unsur uchramaydi. Demak, har qanday san'at asari muayyan estetik vazifani o'taydigan tizimdir va u ma'lum miqdordagi ost hamda ust tizimlardan iborat bo'ladi. Har qanday badiiy butunlik nimadandir kichik, binobarin, qandaydir butunning qismi va nimadandir katta, binobarin, qandaydir qismga nisbatan butun hisoblanadi.

Badiiy asar tahlilida hamisha suyaniladigan tamoyillardan yana biri **tarixiylik**dir. Garchi badiiy asarga tarixning obrazga ko'chirilgan illyustratsiyasi yoxud uning shunchaki estetik in'ikosi deb qarash mutlaqo no'to'g'ri bo'lsa-da, har qanday adabiy asarning muayyan zamonda, muayyan tarixiy sharoitda, konkret vaqtda yashab o'tgan yoxud yashayotgan odam tomonidan yaratilgan va unda aks ettirilgan voqealargina emas, balki ruhiy holat manzaralarida ham o'sha tarixiy davrning tamg'asi borligi yodda tutilishi lozim. Bundan tashqari, har qanday badiiy asar ham ma'lum bir zamon va makonda yashayotgan odam tomonidan qabul etiladi. Binobarin, tahlilga tortilgan har qanday badiiy asarning yaratilgan davrini bilmay va uni hisobga olmay turib, adabiy asarni chuqur o'rganish, teran tahlil etish va haqqoniy xulosaga kelishning imkoni yo'q. O'rganilayotgan asarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilmasa, qahramonlar ruhiy holatini ham, ularni faoliyatga undagan sabablarni ham yanglish tushunish va izohlash mumkin. Shuning uchun ham ulkan adabiyotshunos olim Y. Borev: "Tarixiylik asosiy talqiniy ko'rsatkich sifatida tanqidiy tahlilga xos barcha yondashuv va usullar, amalga oshiriladigan barcha tadbirlar, uni markazlashtirish va tizimga solishga

qaratilgan barcha urinishlardagi yondashuv va yoʻnalishlarni tayin qiladi”<sup>12</sup> deb qayd etadi.

Adabiy asarni tahlil qilishning muhim tamoyillaridan yana biri **estetik asoslarning ustuvorligi tamoyilidir**. Filologik taʼlim amaliyotida badiiy tahlilning maqsadi nimaligi hamisha ham toʻgʻri belgilab olinavermaganligi uchun estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga koʻpincha amal qilinmaydi. Badiiy asar koʻproq inson ruhiyati manzarasi ifodasi boʻlgani bois kitobxonni eng qabariq, eng taʼsirchan tuygʻular tasviri bilan yuzma-yuz qiladi. Shu tariqa, kitobxonlar oʻzga odamlarning ruhiyatiga oshno boʻladilar. Koʻpincha odam oʻz ruhiyatidagi holatlarni anglashga qiynalayotgan bir paytda, chin kitobxon oʻzgalarning kechinmalarini his etishga odatlanib boradi. Natijada, kishining tuygʻulari oʻtkirlashadi, fikri teranlashadi, kechinmalari noziklashadi. Tahlilda estetik asoslar ustuvor boʻlsagina, oʻquvchilarning qalb koʻzi ochiladi va ular tuygʻusizlikdan, hissisizlikdan qutuladi. Badiiy asarni oʻrganish asnosida beparvolik illati solgan zanglar, loqaydlikdan tozalanish inson maʼnaviyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni tahlil qilish murakkab jarayon boʻlib, ushbu jarayonda badiiy asarni tahlil qilish tamoyillarini bilish hamda ushbu tamoyillarni yodda tutgan holda tahlil jarayonini olib borish maqsadga muvofiqdir.

## 1.2. EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISHNING METODIK VA MEʼYORIY ASOSLARI

Adabiyot oddiy soʻzga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuygʻularini harakatlantiradi, koʻngil atalmish sirli va moʻjizakor dunyoni taftish qiladi, olam va odamning mohiyati, ular oʻzaro munosabatlarining sabab va oqibatlarini, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charogʻon etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, maʼnaviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib toʻgʻri yoʻlni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk

---

<sup>12</sup> Боров Ю. Методология анализа художественного произведения. “Ўзбек адабиётшунослигида талкин ва таҳлил муаммолари” мавзусидаги конференция материаллари. –Т.: Мумтоз сўз, 2014. С. 33.

kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o‘qish, kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Kishida badiiy asarni to‘g‘ri anglash va ta‘sir lanish fazilati adabiy asar o‘qish bilan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerakki, umummilliy miqyosda bu yumush faqat maktab adabiy ta‘limi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ya‘ni, adabiy ta‘lim vositasida maktabni bitirgan o‘quvchida badiiy asarni o‘qish va anglash bo‘yicha muayyan tushunchalar shakllantirilishi, badiiy tahlilning ilk ko‘nikmalari yuzaga keltirilishi kerak.

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatli chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. To‘g‘ri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma‘lum darajada o‘zgarishi aniq. Munosabat yo‘sini, nuqtayi nazari esa har qanday ilmiy-ijodiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Epik turdagi asarlarning tahlili xususida gap borar ekan, shu o‘rinda Belinskiyning adabiy tur va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarini eslatishni joiz deb bildik: “Uchala tur ham bitta asos-hayotdan oziqlansalar-da, uchalasi ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan olamni kashf etsa-da, ayni paytda, ularning har birining o‘ziga xosligini ta‘minlovchi predmeti ham bor. Eposniki – voqea, lirikaniki – ruhiy kechinma, dramaniiki – harakatdir. Eposdagi qahramon – voqea, dramaning qahramoni – inson shaxsi, lirikaning qahramoni insonning ichki tuyg‘ularidir”<sup>13</sup>.

Adabiy asarning turi va janri nafaqat bitikning qurilishi yo‘sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so‘zlarning tabiatiga ham ta‘sir

---

<sup>13</sup> Белинский В. Г. Адабий орзулар. –Т.: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

qilishi to'g'risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o'zining "Hermenevtika" asarida: "Asarning janri muallif niyatiga ko'ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. She'riy asar ustida ishlayotgan muallif so'zlarni nasrdagidan tamomila o'zgacha yo'sinda ishlatadi. Poetik so'zni nasriy sochma so'z kabi talqin etishga urinishi uning ma'nosini buzishdir. Nasrda o'z ma'nosidagi so'zni, she'riyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi"<sup>14</sup> deb yozadi.

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A.Ribnikova: "Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi...Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfda o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi"<sup>15</sup>. Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, "turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi". Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, "asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi"<sup>16</sup>.

---

<sup>14</sup> Верклер А. Генри. Герменевтика. Gospel literature services, Schaumburg, Illinois, USA, 1995. С. 55.

<sup>15</sup> Ribnikova asari

<sup>16</sup> Qozoqbo'y Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.: Kamalak, 2016.

Tasvirga qamrab olingan hayotiy borliq ko‘lamining kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-hodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadigan epik asarlarni tahlil qilish ham o‘ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Epik asarlarda qahramonlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko‘ra, shu tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko‘rsatishga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko‘lamdor va ko‘p bosqichli kechimdir. Epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqeabandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egalikdir. Qaysi janrda bo‘lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda qahramonlar bo‘ladi, ular ozdir-ko‘pdir voqealar qo‘ynida tasvirlanadi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar tasviri asnosida namoyon bo‘la boradi.

Epik asarda ham dramadagi singari makon va zamonda sodir bo‘lgan voqelar aks ettiriladi. Epik bayon nafaqat estetik, balki tashkiliy funksiya ham bajarishi kerakligi epik asarning o‘ziga xosligini ta‘minlaydigan muhim jihatlardan biridir. Nutq egasi, so‘zlovchi yoki bayonchi go‘yo oldin yuz bergan voqeani hikoya qilib berayotganday bo‘ladi va ayni vaqtda yo‘l-yo‘lakay turli holatlarni, qahramonlar qiyofasini tasvirleydi, ba‘zan izohleydi. Epik asarlarning, odatda, hajman yirikligi, lirik turdagi asarlar singari bir zarb bilan o‘qib chiqib bo‘lmasligi, uning badiiy ta‘sir ko‘rsatish kechimi ham bir necha bosqichli bo‘lishi mumkinligi tahlilda e‘tiborga olinishi lozim. Bu xil asarda tuyg‘ular oqimi bir tarafga yo‘nalgan bo‘lmaydi. Unda to‘qnashuvlar, his-hayajonlar, olqish-u qarg‘ishlar, ma‘qullash-u inkorlar g‘oyat sertarmoq bo‘ladiki, muayyan asar tadqiqi bilan shug‘ullanayotgan shaxs ana shu sertarmoq badiiy oqimlar orasida kalavasini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak. Hajm va ko‘lam epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan omillardir.

Epik asarlarda muallif tuyg‘usi ham, lirik asarlarda deyarli bo‘lmaydigan qahramon kechinmalari ham, ko‘pincha, ochiq holda kelmaydi. Bu xil asarlarda

hissiyot voqealar tasviri qatiga berkitilgan bo'лади. Qahramonlarni voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tafsilotlar zamiriga joylash imkonini beradi va kitobxon bu sezimlarni ilg'ab olgandagina asar mohiyatini anglab etadi. Tahlilchi o'z mijozlarida ayni shu, ya'ni epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ab olib, undan muayyan mantiqiy xulosa chiqara bilish malakasini shakllantirish orqali asarning hayotiy va badiiy jozibasini kashf eta olishi kerak. Ta'kidlab aytish kerakki, tahlil qilinadigan asar hajman qanchalik yirik, voqealar tasviri qanchalar serqatlam, qahramonlar soni nechog'lik ko'p bo'lmasin, epik asar mazmunini qayta so'zlab berish badiiy tahlil sifatida taqdim etilishi mumkin emas. Buning uchta sababi bor.

**Birinchidan,** tahlilchi qanchalik mahoratli bo'lmasin, badiiy asarni adibning o'ziday aytib berolmaydi va buning keragi ham yo'q. Chunki matn bilan tanishganlar asar mazmunini bilishadi. **Ikkinchidan,** asarni o'qimagan odamlarga asar matnini uning tarovatini bir qadar yo'qotib hikoya qilib berishning aslo foydasi yo'q. Negaki, bunda tinglovchiga asarning o'zi emas, u haqdagi xira tasavvurgina yetib boradi, xolos.

Tahlilchi nechog'lik urinmasin, u ayni asarni bitgan yozuvchi bo'lolmaydi. Ayni asarni yorug' olamda ayni shu yozuvchigina yoza oladi. Tahlilchi asar mazmunini hikoya etish orqali tinglovchilarni undagi qiziqarli voqealardan xabardor qilishi mumkindir, ammo asarda tasvirlangan insoniy xarakter, kechinma, hissiyot va ularni tug'dirgan ochiq-yashirin sabablarni tuydira olmaydi. Tekshirilayotgan asar mazmunini so'zlab berish mumkin emasligining uchinchi bir sababi matn mazmuni aytib berilgan holda asarning barcha unsurlarini tahlil qilib bo'lmaydi. Negaki, badiiy yaratilgan esda qolgan o'rinlarigina tilga olinib, adabiy asar zamiridagi estetik ma'no noma'lumligicha qolaveradi. Epik asarlarni tahlil qilishda uning hajmi, tasvirning murakkablik darajasi hisobga olingan holda ish ko'riladi. Hajm taqozo etishiga qarab, asarni badiiy tahlilning avval aytilgan uch usulidan birini yoki barini qo'llagan holda tekshirish zarur. Mabodo, tahlil qilinadigan asar juda yirik bo'lsa, tahlilchi, oldin asarning eng qiziqarli, badiiy jihatdan eng muhim, bir

qator intellektual-estetik operatsiyalar yordamidagina anglanadigan jihatini tahlilga tortishi lozim. Buning uchun asar umumiy estetik butunlikka zarar yetkazilmaydigan tarzda badiiy ma'noli qismlarga ajratib olinishi zarur. Bunda o'quvchi diqqatini o'ziga beixtiyor tortadigan, qahramonlar tabiati yorqin namoyon bo'ladigan, muallif mahorati ko'zga balqib tashlanadigan, qahramonlar ruhiy dunyosi bo'rtiq aks etgan o'rinlar nazardan qochirilmasligi kerak.

Badiiy tahlilda matndagi muhim jihatni nomuhimdan ajratish, asar qahramonlariga jonli odam tarzida munosabatda bo'lish kerak. Shunday qilinganda, badiiy tahlil asnosida timsolning o'ziga xosligi va adibning san'atkorligi namoyon bo'ladi. Ko'pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi qahramonlardan g'oya qidirishga tutinishadi va shu bois turli asarlardagi mutlaqo boshqa-boshqa qahramonlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g'oyalar ko'pda o'xshash, gohida mutlaqo bir xil, lekin cheksiz olamda bir-biriga to'liq o'xshash bo'lgan ikki kishi yo'q. Badiiy asar

va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu o'xshamaslikning, o'ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozimdir. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik amaliyotida Yo'lchi va G'ofir, Jamila va Gulnor, Saida va Zaynab, Otabek va Anvar, Kumush va Ra'no timsollariga uzoq vaqt mobaynida bir xil baho berib kelingan. Bunga sabab adabiyotshunoslikda bu qahramonlarga individual qiyofaga ega jonli odam sifatida yondashilmagan va ulardan faqat g'oya qidirilib, ijtimoiy xulosa chiqarishga urinilgan.

Epik asarlarni tahlil etishning usullari juda ko'p va tekshirilayotgan epik asar qancha bo'lsa, tahlil ham o'shancha o'ziga xosliklarga ega bo'laveradi. Adabiy tahlilda biror qolipni yasab olib, har doim shundan foydalanaman degan mutaxassis xato qiladi. Epik asar o'rganilayotganda qahramonlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig'iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. Ya'ni epik asar tahlil qilinayotganda, obrazlarning gap-so'zlari, qiliqlari, fikrlari ularning sajiyalariga muvofiqligi, ruhiy jihatdan asoslanganiga e'tibor qilinishi va



asarning asl qiymati ana shulardan keltirib chiqarilishi lozim. Epik asar tahlili faqat mantiqiy operatsiyaga aylanib qolmasligi, balki hamisha asardan go‘zallik topishga intilish diqqat markazida turishi joiz. Nasriy til jozibasini, turli-tuman badiiy vositalar tufayli tug‘ilgan estetik mo‘jizalarni payqay olish, bundan lazzatlanish hamda shu lazzatning manbasini tushunish va zarur bo‘lsa, tushuntirib bera olish kishining ma’naviy yuksalishida beqiyos katta ahamiyat kasb etadi.

Epik asarlar tahlilida badiiy shartlilik, obrazlilik, olamni o‘zgacha estetik nazar bilan ko‘rish mumkinligi ko‘zda tutilishi o‘quvchilarni xilma-xil ijodiy yo‘nalishdagi, turli janrlardagi badiiy hodisalarni qabul qilish va asl san’at asarlarini ommabop bitiklardan ajrata olishga o‘rgatadi.

## II BOB. EPIK ASARLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

### 2.1. HIKOYA JANRIGA OID BO‘LGAN ASARLAR TAHLILINI AMALGA OSHIRISH USULLARI (G‘. G‘ULOMNING “MENING O‘G‘RIGINA BOLAM” HIKOYASI MISOLIDA)

O‘quvchi o‘qilgan asarning sir-asrorini tuygachgina qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi, chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa, haqiqiy kitobxoniga aylanadi. Biror asarni o‘qish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan zavqlanishga undaydi.

Badiiy tahlil maqsadiga ko‘ra ilmiy va o‘quv (didaktik) tahlilga bo‘linishi haqida yuqorida ma‘lumot bergan edik. Ilmiy talqin asarning badiiyligini ta‘minlagan jihatlar, so‘z sehri, san‘atning sirli tomoni nimada ekanligini ko‘rsata bilish bo‘lsa, (o‘quv) tahlil pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, tafakkuri va hissiyotini faollashtiradi. Ilmiy tahlil adabiyotshunosning aqliy faoliyati natijasi bo‘lsa, o‘quv tahlili odamlar bilan muloqot mobaynida amalga oshiriladi. Didaktik tahlilning vazifasi badiiy asarning jozibasini, o‘ziga xosligi, ta‘sir kuchi sabablarini aniqlash orqali o‘quvchilarda sohir qalb, hassos tuyg‘ular, ravon va ifodali nutqni shakllantirishdir. O‘quvchining estetik tarbiyasini faollashtirish, didini o‘stirish orqali uning shaxsini barkamollashtirish esa adabiy ta‘limdan ko‘zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

O‘quv tahlili ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichda o‘qituvchi o‘qitiladigan asarni tahlil qiladi, savollar tuzadi, tahlil uchun maqbul usullar tanlaydi. Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligida darsda biror asar tahlil qilinadi.

O‘quv tahlili muayyan shaxslik fazilatlarini va xislatlarini tanishga qaratiladi. Badiiy asarda voqea yoki kechinmalar yozuvchining mahoratiga qarab kitobxonni o‘z tomoniga «og‘diradi».

**Adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati quyidagi uch yo‘nalishda uyushtirilishi mumkin:**

**Birinchi** yoʻnalishda adabiyot oʻqituvchisi faqat badiiy matnga suyanadi va matn mantigʻini, uning tartibini aslo oʻzgartirmagan holda asar zaminidagi maʼnoni, jozibani oʻquvchilarga koʻrsata boradi. Bu usulni **tekstual tahlil** usuli deyish mumkin va bunda oʻqituvchi koʻproq faoliyat koʻrsatadi.

**Ikkinchi** yoʻnalishda oʻqituvchining eʼtibori obrazlar personajlarga qaratiladi va ularga xos ruhiy holatlarni anglab borish jarayonida asarning badiiy maʼnosi oʻzlashtiriladi. Adibning sanʼatkorlik mahorati ham badiiy obrazlarning qanchalik jonli va taʼsirchan ishlanganligini tahlillash asnosida ochib boriladi. Bu yoʻnalishni **timsoliy tahlil** yoʻli deyish mumkin va bu yoʻnalishda oʻquvchilarning ham anchagina faol ishtirok etishlariga imkoniyat boʻladi.

**Uchinchi** yoʻnalishda esa tahlil asosan oʻquvchilar tomonidan olib borilishi koʻzda tutiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilar oldiga muammo qoʻyadi va ularga bu muammoni yechish yoʻllarini koʻrsatadi. Asar tahlili jarayonida oʻquvchilar faqat bilgan tushunchalaridangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni oʻzlashtirib olishadi. Negaki, ular jamoa boʻlib ishlaydilar. Oʻzaro fikr almashadilar, bahslashadilar. Natijada maʼnaviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan oʻzgarishlar sodir boʻladi. Oʻquv tahlilning bu usuli **muammoli tahlil** deyiladi.

Barchamizga maʼlumki, adabiyot uch tur: lirik, epik va dramatik asarlar kabi turlarni oʻz ichiga oladi. Har bir adabiy tur esa xilma-xil janrdagi badiiy asarlar qamrovidan iborat.

Epik asarlar turkumiga hikoya, qissa, roman, ocherk, afsona, rivoyat, mif kabi asarlar kiradi. Ushbu bobda biz epik turga mansub boʻlgan asarlardan hikoya, qissa va roman kabi turlarining oʻziga xos xususiyatlari hamda ushbu janrga mansub boʻlgan asarlarni tahlil qilish boʻyicha bir qator tavsiyalarimizni bermoqchimiz.

Eng avvalo, hikoya janriga oid boʻlgan asarlarning oʻziga xos xususiyatlariga toʻxtalmoqchimiz.

Hikoya (arabcha soʻz, maʼnosi: “1) biror narsaning ogʻzaki bayoni, tafsiloti; 2) nasriy yoʻl bilan yozilgan kichikroq badiiy asar”) – Izzat Sultonning asosli

ta'kidlashicha, latifa mazmuniga kirgan voqeadan kattaroq, ammo povestga mazmun beruvchi voqeadan kichikroq sarguzashtni, ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvirlaydi. Darvoqe, u "... minglab bo'laklarga bo'lingan romandir... kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan bir epizod... shunday voqea va hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi" (V.Belinskiy). Hikoyaning eng ixcham ko'rinishi novella (it. novella - yangilik) deb yuritiladi. "Xarakterning muayyan vaziyatdagi holati voqeaning keskin burilish nuqtasida, dinamik syujet, kuchli dramatism, kutilmagan yechim asosida ko'rsatish - hikoya (novella) uchun eng xarakterli xususiyatdir" (T.Boboyev).

Abdulla Qahhorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri" kabi asarlari hikoya janri talablariga to'liq javob berishi bois, ular mumtoz hikoyalar sanaladi. Ularda kitobxon uchun yangilik bo'la oladigan turmush voqealari realistik va qiziqarli tasvirlangan.

Novella janri inson hayotining tipik bir lahzasini tasvirlagani uchun, shu lahzani shunchalik yorqin ifodalashi kerakki, unda hamma so'zlar badiiy "yuk" tashishi, "so'z isrofgarchiligiga sabab bo'ladigan ortiqcha detallar ham bo'lmasligi" lozim. Bu haqiqatni so'z san'atining buyuk ustasi Abdulla Qodiriy "O'qish-o'rganish" maqolasida A.P.Chexovning "Chinovnikning o'limi" nomli g'oyatda siqiq, quyuq yozilgan hikoyasi misolida asoslaydi. U yozadi: "Hikoyani "ser suv" (ko'p suvli) qiladigan narsalardan biri ko'rsatish o'rniga so'zlab berishdir.

O'quvchilar tafakkurini o'stirish, so'z boyligini oshirish, estetik didi, ma'naviyatini yuksaltirishda o'rganilayotgan hikoyalarning badiiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quvchining o'qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish, kezi kelganda, o'z hayotlarida o'rganganlaridan xulosalar chiqarish malakalari shakllantiriladi. Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi. Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni o'z tajribasidan izlaydi. Bunday hayotiy tajriba hosil bo'lishi uchun esa yaxshi kitobxon sifatida voqealar-u kechinmalarni o'z qalbidan o'tkazishi, o'zi

tanlab olgan obrazning tarafdori bo‘lib, uning yutuqlari, quvonchi, qayg‘usi-yu mag‘lubiyatini ham o‘zini qilib olishi kerak bo‘ladi.

Ishimizning ushbu qismida biz 5-sinf Adabiyot darsligi<sup>17</sup>da o‘rganilgan G‘. G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining tahlili asosida o‘z tavsiyalarimizni berib o‘tmoqchimiz.

“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini o‘rganish davomida o‘quvchilar **insof, diyonat, andisha, hamdardlik, qo‘rquv, topqirlik, nafsga qullik, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, yaxshi niyat** kabi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli-tuman kechinmalar, hissiyotlar olamidan o‘zlarini izlab ko‘radilar.

Ushbu hikoya tahlili olib borilar ekan, eng avvalo, hikoya hodisalari yuz berayotgan davr haqida o‘quvchiga ma‘lumot berilishi lozim. Bunda I jahon urushida ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasi bu adolatsiz urushda nima qilib bo‘lmasin g‘olib chiqish maqsadida o‘zining mustamlakasi hisoblangan chekka o‘lkalar, jumladan, Turkiston xalqlarining bor boyligini tashib olib ketgani, o‘lkada ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borgani va boshqa tarixiy faktlar axborot sifatida keltiriladi. Minglab oilalarning yagona boquvchilari – ishga yaroqli erkaklarning urush orti hududlariga mardikor sifatida majburlab olib ketilgani, panohsiz qolgan ayollar va bolalar tirikchiligi nihoyatda xarob ahvolga kelgani eslatiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarining tayyorgarligi ruhiy-aqliy darajasini hisobga olib, tahlilga chuqurroq kirishga undaydigan o‘z savol-topshiriqlarini va darslik mualliflarining yo‘naltiruvchi savollaridan foydalanishi mumkin. Badiiy asarni tahlil qilishga tutingan o‘qituvchi san’atkor bilan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga kiritadigan insondir. Buni qanday natijali amalga oshirish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq, albatta.

**“Bu kim? Bu nima? Bu qayer?”** o‘quv topshirig‘i matnni diqqat bilan o‘rganishga, obrazlarning ko‘rinishi, gap-so‘zi, umuman, mayda detallargacha ko‘zdan qochirmaslikka undaydi: badiiy tafsillar (odam, turmushi, u bilan bog‘liq narsalar hamda obrazning o‘y-xayollari, quvonchi, qayg‘usi, kechinmalari, ko‘ngli

---

<sup>17</sup> Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1- qism, 3-nashri //S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. – Toshkent: Sharq, 2015.

tasviri) yozuvchi ifodasi bilan berilar ekan, o'quvchining bilish zavqi, imkoniyatlari yanada ortadi. Asar o'qilayotganda emas, balki uyga vazifa sifatida berilib, o'quvchilar o'qib kelishgandan keyingina o'quv tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

“**Bu kim? Bu nima? Bu qayer?**” usulida o'quvchilar, avvalo, yo'riqnoma bilan tanishtiriladi, ya'ni asardan olingan tafsilotlardan jumlar aytilib, kimga, nimaga va qayerga tegishli ekanligi so'raladi. Buni kichik guruhlarda bajarish ham mumkin. Masalan:

Ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Bu qayer?

Boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi?  
Mana: olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. kunduz kunlari garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib mizg'iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi. Bu kim?


Qo'ndoqning tagiga borib, og'zimni suvga to'ldirib ..... ga purkayman. ....day ahmoq jonivor olamda yo'q. Yomg'ir yog'yapti, shekilli, deb o'ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi. Bu nima?

Shuningdek, epik asarlar tahlili olib borilganda ushbu asarning badiiy tasviriy vositalarga qay darajada boyligi, yozuvchining so'z ishlatish mahoratiga, ushbu mahoratning g'oyaviy va badiiy jihatdan estetik ta'siriga o'quvchilar e'tiborini qaratish juda muhim sanaladi. Shu maqsadda “Nodir tashbehlar” usulini qo'llash mumkin.

«**Nodir tashbehlar**» usuli badiiy tahlilda o'quvchining eng nozik qalb torlariga yetib borgan, uni ta'sirlantirgan o'rinlardan o'xshatishlar, topib aytilgan tamsillar, so'z sehridan hayratlar, umuman, betakror jummalarni yig'ib, fikrlash, zavqlarini ifodalash, bahslashishga undaydi. Masalan, hikoyadagi «Tirikchilik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'», “Turib yeganga turimtog'”

chidamas”, “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak”, “O‘zimni o‘tga, cho‘g‘ga, Alining qilichiga uraman”, “Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi”, “Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi”, “yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q” kabi tabiat va inson tabiati tasvirlari asar qahramonlarining ruhiyati, taqdiri bilan bog‘liq holda tasvirlangandek taassurot qoldiradi. Ushbu tashbehlarni ajratish uchun guruhlarga quyidagi ko‘rinishdagi tarqatmalar tarqatiladi.

Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring.



Hikoya tahlili davomida o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini hikoyada insonlarga xos bo‘lgan quyidagi fazilat va illatlarning namoyon bo‘lishi jarayoniga qaratadi hamda ushbu fazilatlar yoki illatlarning qay tariqa namoyon bo‘lganligini hikoya matni ichidan topib, ushbu jadvalni to‘ldirish topshirig‘ini bajartiradi.


|            |  |
|------------|--|
| ANDISHA    | <i>Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman</i>   |
| HAMDARDLIK | <i>hov, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o‘g‘rigina bolam-a. Ha, mayli shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir</i>   |
| QO‘RQUV    | <i>(ey, buvim, tushmagur, soddasiz-da, sodda, – dedi o‘g‘ri. – Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi.</i> |



|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | <i>Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘ldirmaganda ham Sibir qilib yuboradi</i>  |
| TOPQIRLIK           | <i>hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan, buvi, tovuq olgani borgada cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman</i> |
| NAFSGA QULLIK       | <i>shunday qilib, desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m pul jamg‘arib: “Topganimiz shu, ellikboshi ota”, deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi</i>    |
| MEHMONDO‘STLIK      | <i>qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket.</i>   |
| BAG‘RIKENGLIK       | <i>allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik, shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi</i>  |
| YAXSHI NIYAT QILISH | <i>-ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik.</i>   |

Biz yuqorida muammoli ta‘lim hamda uning afzalliklari haqida eslatib o‘tgan edik. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini ham muammoli ta‘lim texnologiyalariga mos keladigan topshiriqlarni bajarish orqali tahlil qilish mumkin.

Buning uchun sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar, so'ng **“NIMA UCHUN?”** savoliga javob berishni guruh bilan birgalikda o'ylab, o'zlarining fikr-mulohazalari aytib o'tadilar. “Nima uchun?” usuli muammo yoki asardagi biror asosiy fikrning sabab va yechimlarini izlashga «nima uchun?» degan uzun yo'l orqali borishni talab etadi. Bu «yo'l» qancha uzoq bo'lsa, asar mazmuniga, undan olinajak badiiy zavqqa shuncha yaqinlashamiz. Tahlil jarayonida o'quvchilarning barcha javoblari qabul qilinishi kerak. Muhimi, ular matni o'rganishga kirishib ketadilar, mustaqil fikrlaydilar hamda o'z fikrlarini asoslaydilar.



Badiiy asar tahlilini xulosalash jarayonida fikr almashishda **“Eng muhimi...”** usuli qo'l keladi. Bunda o'quvchilar asardagi o'zlari uchun eng muhim deb bilgan jihatlarni aytadilar va nima uchun muhim deb topganlarini sharhlaydilar.

| ENG MUHIMI |
|------------|
|            |
|            |
|            |
|            |
|            |

Bizningcha, ushbu jarayonda o'quvchilarning e'tibori "O'g'rigina bola"ning gap-so'zlari, harakatlaridan uning bu yo'lga kirganiga ko'p bo'lmaganligi, u o'zi aytganidek, "juda ham yuzini sidirib tashlagan" odamlardan emasligi, bu yigitda andisha va uyatning borligi, majburan qilib yurgan ishi o'ziga ham yoqmaganligiga qaratilishi lozim. Ayniqsa, o'g'rining kampir bilan dardlashgach, chinakam insoniy qiyofasiga qaytganligini, u yetimlar haqiga qo'lini tekkizmasligini, o'g'rining mana shu "fazilat"larini go'yo oldindan sezgandek, kampir uni "o'g'rigina bolam" deya erkab chaqirganligini, oxir-oqibatda yozuvchining yurtdoshlarining taqdiriga befarq bo'lmaganligi o'quvchilarga yana bir bor uqtirilishi lozim.

O'qituvchi tahlil yakunida, albatta, fikrlarni xulosalashi, guruhlarning ishtirokini izohlashi hamda noto'g'ri hukmlardan kitobxonni ogohlantirishi kerak.

## 2.2. QISSA JANRIGA OID BO'LGAN ASARLAR TAHLILIGA INNOVATSION YONDASHUV (CH. AYTMATOVNING "OQ KEMA" QISSASI ASOSIDA)

Epik janrga oid bo'lgan yana bir tur bu – qissa. Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu qismida biz qissa janriga oid bo'lgan badiiy asarlarni tahlil qilishga oid bo'lgan innovatsion usullarni tavsiya qilamiz. Eng avvalo, qissa janriga berilgan ta'rif hamda ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlariga ozgina to'xtalamiz.

Qissa arabcha, ma'nolari "voqeyiy hodisa yoki afsonalar bayon qilingan epik asar, syujetning murakkabligi jihatidan romandan ko'ra soddaroq badiiy asar" bo'lib, eng qadimgi janrlardan biri sanaladi, unda, asosan, ishqiy mazmun yetakchilik qiladi.

Povest (ruscha so'z, ma'nosi hikoya, rivoyat qilish)ning asosiy belgisi, unda "Hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan kengligi; shunga muvofiq syujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi hisoblanadi"<sup>18</sup> (N.Hotamov, B.Sarimsoqov, 235-

---

<sup>18</sup> Н. Хотамов. Б. Саримсоковнинг асари

bet). “Romanda olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi” bo‘lishi shart bo‘lsa, bu hodisaning bir qismi(parchasi)ni bir-ikki qahramon taqdiri misolida yechilishi povest uchun yetarlidir. Faqatgina hayotiy voqealar tasviridan katta umumlashmalar chiqarish, muayyan davr hayot tarzidan gumanizm falsafasini yorqin e‘zozlash pafos darajasiga ko‘tarilishi kerak. Shu sabab V.Belinskiy: “Povest ham ayni romanning o‘zginasidir, faqat kichik hajmdadir, asarning hajmi mazmunning hajmi va mohiyatiga qarab belgilanadi”<sup>19</sup>, - degan edi “Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi” maqolasida.

Povestda syujet ham, konflikt ham, kompozitsiya va boshqa unsurlar ham qissaga nisbatan ixchamroq bo‘ladi, tezroq suratda rivojlanadi, realizm yetakchilik qiladi va chuqurroq ifodasini topadi. Asardagi asosiy personajlarning hayotlarida yuz bergan bir qator tipik voqealar siqiq tarzda, ko‘pincha, bitta yetakchi syujet yo‘nalishiga asoslangan holda yoritiladi. Jumladan, G‘.G‘ulomning “Yodgor” povestida Jo‘ra xarakterining shakllanishi bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi, barcha voqealar, Yodgor, Saodat, Mehrixon, Abdug‘ani, Obid, Umar aka kabi obrazlar – qahramon Jo‘ra xarakterining tipik xususiyatlarini ochishga, asardagi insoniylik g‘oyasini bo‘rttirib ko‘rsatishga bo‘ysinadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, S.Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi”, A.Qahhorning “Sinchalak”, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Ne‘mat Aminovning “Bir asr hikoyati” povest janrining yetuk namunalari sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning qissalar tahlilini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan qismida Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi tahliliga alohida to‘xtalishga qaror qildik.

Eng avvalo, o‘quvchilarning asar matni bilan to‘liq tanishgan yoki tanishmaganligini tekshirish uchun “**Mushohada**” usulidan foyalaniladi. Har ikki guruhga asarni turli joylaridan parchalar beriladi. Ushbu parchalar guruhda muhokama qilinib, asarning qaysi qismi ekanligi, asarda ushbu parchaning qanday

---

<sup>19</sup> Белинский В. Г. Поезиянинг хил ва турларга бўлиниши. –Т.: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

ahamiyat kasb etganligi, uning davomi haqida o'z mulohazalarini havola etishlari mumkin. Masalan, 1-guruhga quyidagi parcha berilishi mumkin:

*...Bulutlar yaxshi biladi: ko'ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo'nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay oh-voh qilishsin: «Eh bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz?» – deb kuyib yurishsin. Bunday bo'lmasligi uchun – sen yo'qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang, bulutlar o'shanga aylanib qoladi. O'sha birgina bulutning o'zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko'rib bilsang, bas.*

1-guruh quyidagicha javob berishi mumkin:

– Bu holat asarning boshlanishida kuzatiladi. Bolakayning tabiatga mehri, sadoqati va tabiat bilan birlashib ketgani haqida fikr yuritiladi. Bu yerda yozuvchi bolakay ko'p bora dili og'rigani va hamma narsadan xafa bo'lganida qanday holatga tushganini ko'rsatib bergan. Bu ko'p bolalar psixologiyasida uchraydi: kimdir xafa qilsa, qayoqlargadir ketib qolgisi keladi, toki hamma seni topolmay oh-voh qilishini istaydi, aytgan gaplaridan afsuslanishlarini xohlaydi.

So'ng 2-guruh uchun ushbu parcha havola etiladi:

*– Eh Ona bug'u, sen odamlarni bilmaysan, – bosh tebratdi Cho'tir Baymoq kampir. – Ular hayvonlargagina emas, hatto o'z-o'zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so'zlarim qanchalik rostligiga o'zing guvoh bo'larding, lekin odamlar baribir qo'lingdan tortib olib, bu bolalarni o'ldirishadi. Buncha g'amning senga nima keragi bor?*

*– Men bolalarni uzoq o'lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo'layin. Yelinlarim to'lib turibdi, sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor”.*

O'quvchi: Asar tarkibida Shoxdor ona bug'u haqida ibratli hikoyat keltirilgan. Bu parcha shu hikoyatdan olingan bo'lib, unda yetim bolalarni o'lim changalidan qutqarib qolgan afsonaviy Shoxdor ona bug'uning mehribonliklari

haqida fikr yuritiladi. Insonlar o'rtasidagi xunrezliklar, o'z manfaatlari uchun jigrlarini ham ayamasliklari to'g'risida Cho'tir Baymoq kampir tilidan aytib o'tiladi. Insoniyatning tabiatga bo'lgan ayovsiz munosabati nadomat bilan tilga olinadi. Shoxdor ona bug'u ikki yetim bolani boqib, voyaga yetkazadi va Bug'ular avlodining shajarasi paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi.

**“Ibtido va intiho”** usuli. Ushbu usuldan o'qituvchi bolakay obrazini kengroq va chuqurroq ochib berish maqsadida foydalanadi. Har bir guruhga ushbu jadvalni taqdim etib, ularni guruhda muhokama qilgan holda to'ldirish topshiriladi.

**Bolakayning asar ibtidosidagi baxtiyorligi sabablari**

| Oila | Do'stlari | Orzu | Tabiat |
|------|-----------|------|--------|
|      |           |      |        |

**Bolakayning asar intihosidagi baxtsizligi sabablari**

| Oila | Do'stlari | Orzu | Tabiat |
|------|-----------|------|--------|
|      |           |      |        |

Guruhlar jadvalni to'ldirishga harakat qilishadi va o'z mulohazalarini bildirishadi. Guruhlarning javoblari tinglangach, quyidagi slaydlar asosida fikrlarni xulosalash mumkin:

**Bolakayning asar ibtidosidagi baxtiyorlik sabablari**

| Oila                    | Do'stlari  | Orzu   | Tabiat   |
|-------------------------|--|--|--|
| Bobosi –<br>Mo'min chol | “Tank”, “Egar”,<br>“Tuya”, durbin,<br>portfel, pechakgul,<br>shiroljin, bulutlar | Uning bu yil<br>maktabga chiqishi,<br>baliqqa aylanib<br>qolishi, oq kemaga<br>suzib borish,<br>otasi bilan<br>ko'rishish, kema<br>matrosi bo'lish | Ko'lobda miriqib<br>cho'milish, soatlab<br>durbin bilan<br>atofni kuzatish,<br>Shoxdor ona<br>bug'udan<br>faxrlanish va uni<br>e'zozlash |

|  |  |  |  |
|--|--|--|--|
|  |  |  |  |
|--|--|--|--|

### Bolakayning asar intixosidagi baxtsizligi sabablari

| Oila   | Do'stlari   | Orzu  | Tabiat  |
|--|---|---|---|
| O'z ota-onasining tashlab ketgani, O'rozqulning zulmlari, Bo'keyning baxtsizligi, bobosining o'lar holatda ichishi | Bolalardan do'sti yo'qligi, jonsiz do'stlari yordam berolmagani | Maktab ovuldan 5 ming chaqirim uzoqdaligi, har kuni maktab partasida o'tira olmasligini tushungani, oq kema hech qachon yoniga suzib kelmasligi | Shoxdor ona bug'uning so'yilishi, issiq buyragini unga ushlatib qo'yilishi. |

Ushbu usul yordamida o'quvchilar asar bosh qahramonining ruhiy va jismoniy tanazzuli omillari haqida chuqur mulohaza yuritishga va uni atroflicha tahlil qilishga muvaffaq bo'ladilar.

Asarda ramzlar, ramziy obrazlar tizimi borki, bu tushunchalar haqidagi nazariy ma'lumotni ham o'quvchilarga taqdim etish maqsadga muvofiq. 7-sinf "Adabiyot" darsligida ramz haqida: "Badiiy adabiyotda keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko'z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi"<sup>20</sup>, – deya ta'rif berilgan. Quyida berilgan chizmada asarda keltirilgan ramziy obrazlar haqida so'z boradi:

<sup>20</sup> Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Sharq, 2013.





**Tushunchalarni izohlash usuli.** Quvlik, shumlik, yovuzlik, shafqat, boylik, takabburlik, telbalik kabi tushunchalarni o‘quvchilar o‘z bilimlari va izohli lug‘atga tayangan holda izohlaydilar.

QUVLIK– odamlarga xos ayyorona xatti-harakat, ayyorlik, hiyla, makr.

SHUMLIK– biror-bir yomon, shum harakat.

YOVUZLIK – yovuzlarga xos xatti-harakat, johillik.

SHAFQAT– biror kimsaga achinish, ayash, rahmdillik, mehribonlik.

BOYLIK– dunyo, davlat, mol-mulk, moddiy resurslar manbayi.

TELBALIK– telbalarcha aqldan ozgan, es-hushini yo‘qotgan kishilarga xos holat, xatti-harakat, jinnilik.

TAKABBURLIK – qitmir odamlarga xos ish, xatti-harakat, qiliq.

“**Men kimman?**” usulidan foydalanib, asar qahramonlari xarakteri tahlil qilinadi. Guruhlardan bittadan ishtirokchi taklif etiladi, uning “Men kimman?” degan savoliga raqib guruh biror asar qahramonining ismini aytadi va shu qahramon asosida savollar berishadi. O‘quvchi shu qahramon ruhiyatini his etib,

uning tilidan, asardan chetlashmagan holda savollarga javob beradi. Masalan, 1-guruh ishtirokchisi bilan quyidagicha savol-javob o‘tkazilishi mumkin:

– Men kimman?

– Siz Mo‘min cholsiz.

– Qanday savollaringiz bor?

– Nega sizni Mo‘min Chaqqon deyishlarini bilasizmi?

– Albatta, men har doim atrofimdagilarga yordamga tayyorman, eng qiyin va mas‘uliyatli ishlarni bajarishdan charchamayman. Yosh-u qari menga yumush aytishi mumkin, lekin bundan hech qachon xafa bo‘lmaganman, jonim bilan yordam beraman. O‘zimni hammaga kerakli inson deb hisoblayman, har bir ishni tez va sarishta bajaraman, balki shuning uchun meni Mo‘min Chaqqon deyishar.

– Sizni nima xafa qilishi mumkin?

– Ovulda kattalar tomonidan tashkil etiladigan ma‘rakalarga aytilmay, eslaridan chiqib qolishim yoqmaydi. Meni aytishmagani emas, balki ma‘rakalarda qadim-qadimdan bajarilib kelinayotgan urf-odatlarni to‘liq ado etishmasligi meni qattiq xafa qiladi.

...Suhbat shu tarzda davom etadi. So‘ng “Allomalar” guruhi ishtirokchisi bilan savol-javob qilinadi:

– Men kimman?

– Siz bolakaysiz.

– Menga qanday savollaringiz bor?

– Nega tabiat bilan gaplashasiz?

– Chunki men tabiat quchog‘ida tug‘ilganman, boshqa bolalar yo‘q, do‘stlarim ham, sirdoshim ham, ota-onam ham tabiat. Masalan, “Tank”, “Egar”, “Bo‘ri”, “Tuya”kabi tosh-do‘stlarim bor. Yana bir talay yaxshi va yomon gullar, o‘simliklardan do‘stlarim bor. Muhimi, men tabiatni sevaman, tabiat ham menga o‘z sirlarini ochgan.

– Bobongiz-chi, u qanchalar qadrli?

– Bobomning barcha xislatlari yoqadi, u menga juda mehribon, jonkuyar. Men voyaga yetib, yaxshi inson bo‘lishimga ishonadi. Bobomni atrofida qiyinlashi, g‘amga botirishi meni azoblaydi.

– Oddiy portfel bilan ham gaplashsa bo‘ladimi?

– Albatta, uni qancha uzoq kutdim, axir! Bobom portfel olib berishlarini bilar edim, chunki 7 yoshga to‘lib, 8 yoshga o‘tdim, bu yil maktabga borishim aniq. Portfelim bilan uzoq suhbatlashishim mumkin, chunki portfelim orzu-umidlarim darakchisidir...

Bu usul yordamida o‘quvchilar asar qahramonlarini ruhan his qilishga harakat qiladilar, o‘zini ular o‘rnida tasavvur qila oladilar, ular uchragan muammolar qarshisidan chiqadilar, asosiysi, “Oq kema” asari olamiga kirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Darsning bu bosqichida **“O‘n ikki oy bir yilda”** usulidan foydalanib savol va topshiriqlar bilan ishlanadi. Buning uchun guruhlar xohlagan oy nomini aytadilar.

Masalan, yanvar oyini tanlashsa, 1-raqamli savol o‘qib eshittiriladi, mart oyini tanlashsa, 3-raqamli savolga javob berishlariga to‘g‘ri keladi.

1. Chaqirtikanak, supurgio‘t va pechakgullarga bo‘lgan bolakayning munosabati uning qaysi jihatlarini ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz?

2. Bolaning bobosi Mo‘min chol tabiati haqida nima deya olasiz? Uni nega hurmat qilishmaydi, u bilan nima uchun hisoblashishmaydi?

3. Adib nega Mo‘min cholni “kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi” deya ta’riflagan?

4. Bolaning durbin va portfeli bilan suhbatlashuvini nima deb tushuntirish mumkin? Sizda ham qachonlardir shunday holat bo‘lganmi?

5. Bolaning baliq bo‘lish va oq kemagacha suzib borish haqidagi orzusi nima uchun va qanday paydo bo‘ldi?

6. Shoxdor ona bug‘uning yetim bola va qizchaga ko‘rsatgan mehribonchiligi sababi nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni asar matniga tayanib asoslashga urining.

7. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining buzilishi qaysi voqeadan boshlanganini qissa matniga tayanib tushuntiring.

8. Bug‘u boshini maydalayotgan O‘rozqulning boltasi jonivorning ko‘ziga kelib tekkanida bola nega chinqirib yuborganligini qissa matniga tayanib izohlang.

9. Bobosining Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertagi bolaga ko‘rsatgan ta’siri ifoda qilingan o‘rinlarni toping va buning sabablarini tushuntirishga urining.

10. Bolaning tengdoshlarsiz, yolg‘iz ekanligi sababini tushuntiring.

11. Bolaning katta odamlar o‘rtasida adolat, ezgulik, olijanoblik yo‘qligi borasida qat’iy xulosaga kelishiga qaysi voqea turtki bo‘ldi deb o‘ylaysiz?

12. Bolani o‘z ertagi qo‘yniga – baliq bo‘lib uzoq Issiqko‘l tomon suzib ketishga undagan eng so‘nggi voqea nima edi?

Shuningdek, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish hamda ular yuzasidan turli xil fikrlar bildirish uchun quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish ham mumkin:

1. “Oq kema” qissasi nima haqida?
2. “Oq kema” qissasi boshlanishida bolaning ikki ertagi bo‘lgani haqida gap boradi. Siz shu ertaklarning qaysilar ekanligini bilib oldingizmi?
3. Nega bolaning ismi yashirin?
4. Mo‘min cholni nega yozuvchi “kamdan-kam uchraydigan baxtli odam” deya tasvirlaydi?
5. Bolaning tengdoshlarsiz, yolg‘iz ekanligi sababini tushuntiring.
6. Boshqalardan yashirincha yig‘laganda pana qiladigan shiroljin o‘simligiga bolaning mehri nega tushgan deb o‘ylaysiz? Qissa qahramoni nega yashirincha yig‘laydi deb o‘ylaysiz, odatda, bolalar yig‘lashdan uyalishmaydi-ku?
7. Bolaning katta odamlar o‘rtasida adolat, ezgulik, olijanoblik yo‘qligi borasida qat’iy xulosaga kelishiga qaysi voqea turtki bo‘ldi deb o‘ylaysiz?
8. Bola – Mo‘min chol – Bug‘u – Baliq: O‘rozqul – Seydahmad – Bo‘key xola obrazlaridagi mushtaraklik nimalarda ko‘rinadi?

9. Tabiat va odamlar tasvirida qanday yangilik bor? Bola nom bergan o't va toshlar bilan asar qahramonlari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Uyga vazifa sifatida asar qahramonlariga maktub yozish, asar asosida rasmlar chizish topshirig'ini berish mumkin.

### 2.3. ROMAN JANRIGA OID BO'LGAN ASARLARNI TAHLIL QILISHGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI (O'.HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANI MISOLIDA)

Katta epik janrga mansub roman va epopeya mazmuni, birinchi navbatda, ularda ko'tarilgan muammoning mohiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Epopeyaning mazmuniy asosini deyarli hamisha milliy, romannikini yo ma'naviy-axloqiy yoki psixologik muammo tashkil etadi. Shuning uchun ham roman janriga mansub asar tahlilida tekshirilayotgan asarning shu ikki turdan qaysi biriga mansub ekanini aniqlab olish o'ta muhimdir. Negaki, roman bilan epopeyaning poetikasi mazmuniy asoslardan kelib chiqib quriladi. Epopeya ko'pqatlamli syujetga ega bo'lib, unda qahramon timsolida u mansub tabaqa, etnos yoki xalqqa xos jihatlar aks etishi ko'zda tutiladi.

Boshdan-oyoq qiziqarli va tahlikali voqealar tasviriga qurilgan romanlarda ham syujet ustuvor bo'lsa-da, ko'pincha qahramon tabiati o'zgacha yo'sinda, ya'ni etnik, tabaqaviy hamda jamoaviy aloqalardan atay uzilgan holda tasvirlanadi. Chunki tavakkalchilik romanining syujeti aynan qahramon tabiatidagi tabaqadan ayrilishga intilish hissi tufayli rivojlanadi. Ma'naviy-axloqiy mazmuniy asoslar ustuvor bo'lgan romanlar deyarli hamisha psixologik va polifonik xususiyatlarga ega bo'ladiki, ilmiy tahlil jarayonida ayni jihatga e'tibor qaratilishi lozim.

Har qanday turga mansub romanning ham asosiy belgisi uning individni tekshirish va tasvirlashga bag'ishlanganidadir. Gap shundaki, odam oldin individ sifatida paydo bo'lsa ham, faqat jamoadagina shaxs sifatida shakllana va o'zligini namoyon eta oladi. Odatda bir shaxsdan ko'ra muayyan ijtimoiy qatlam yoki to'dani tasvirlash osonroq kechadi, shu sababli tasvirning

bu yoʻnalishi qadimiy tarix va boy anʼanalarga ega. Har bir odamdagi alohidalikdan koʻra, muayyan tabaqaning universal jihatlarini tasvirlash oʻngʻayroq ham. Lekin insoniyat rivojlangani sayin tabiiy ravishda odamning individuallasuvi kuchayib boraveradi va buni fundamental yoʻsindagina tasvirlash mumkin. Butun jamiyatni yoki ijtimoiy qiyofasi shaxsiy qiyofasidan ustuvor boʻlgan odam holatini ifodalash uchun sheʼr, poema, epos, drama, tragediya, komediya kifoya qilar, lekin shaxslik qiyofasi, individual jihatlarini kuchli, ichki dunyosi murakkab odamni tasvirlash uchun aynan roman kerak boʻladi. Odam va odamlararo ichki munosabatlar butun murakkabligi va miqyosi bilan faqat roman janridagina toʻla berilishi mumkin. Zero, bitta odamning ichki dunyosi butun olamdan katta va murakkabroqdir.

Insoniyat tarixining keyingi yuz ellik yili davomida ayrim xalqlar adabiyotida romanning epopeya deb ataluvchi salmoqdor bir turi yaratila boshlandi. Bu xil asarlar adabiyot tarixida koʻp dunyoga kelavermasligi maʼlum. Bunga epopeya yozishning qiyinligidan tashqari, unga material boʻladigan hayotiy asosning ham har doim uchrayvermasligini sabab qilib koʻrsatish mumkin. Roman-epopeyaga milliy va maʼnaviy-axloqiy muammoni qorishiq badiiy tadqiq etish xos boʻlib, u bu ikki yoʻnalishdagi muammolarni shunchaki qoʻshib qoʻya qolmaydi, balki shaxsning maʼnaviy-axloqiy izlanishlari xalq va millatning ruhiyati hamda haqiqati bilan bogʻliq holda tasvirlaydi. Muayyan shaxs taqdiri orqali millatning qismatidagi qaltis bosqichlarni aks ettirish roman-epopeyalarda koʻtariladigan asosiy muammodir. Epopeyada butun boshli etnosning barcha qatlamlari uchun tahlikali va hayot-mamot ahamiyatiga ega boʻlgan voqealar fonida qahramonning izlanish-u urinishlari alohida mohiyat, dolzarblik, ahamiyat kasb etadi; epopeya qahramon yoki qahramonlari koʻpincha nafaqat oʻzining hayotdagi oʻrnini topish, balki millat tarixida burilish yasash zaruriyati oldida boʻladi. Epopeya poetikasi uchun tafsilotlar bilan psixologizmning qorishiq kelishi, umumiy, oʻrta va yirik plandagi tasvirlarning uygʻunligi, syujet chizigʻining koʻpligi va oʻzaro

chirmashib ketganligi, muallif chekinishlarining mo‘lligi singari xususiyatlar xosdir.

“Zamonamizning epopeyasi romandir. Eposning hamma asosi, muhim xususiyatlari romanda bordir, faqat ayirmasi shundaki, romanda boshqa elementlar, boshqa manzara hukm suradi. Bunda qahramonlik hayotining afsonaviy o‘lchovlari, qahramonlarning azamat siymolari yo‘q, bunda xudolar ishtirok qilmaydi: romanda, odatdagi, prozaik hayotning hodisalari ideallashtiriladi, umumiy tip ostiga olinadi... bunda odamning taqdiri uning jamiyatiga nisbatan muhim bo‘lib qolmasdan, balki insoniyatga ham muhimdir”<sup>21</sup>-deb ta’kidlaydi V. Belinskiy.

V. Belinskiy fikrlarini davom ettirib, badiiy asar sifatida romanning vazifasi-kundalik hayot va tarixiy voqealarning- yashirin qalbini, jonli g‘oyasini ochish, tarqoq voqealarni ruh va aql maskani qilish ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shu asosga tayanib, yozadi: “Roman badiiyligining darajasi asosiy ideyaning chuqurligiga va ayrim xususiyatlarda u ideyani tashkil etgan kuchga bog‘liqdir. O‘z vazifasini bajarish bilan roman ozod fantaziyaning mevasi bo‘lgan hamma boshqa asarlar qatoriga o‘tadi, mana shu ma’noda roman oddiy xalqning zarur ehtiyojlarini ta’min etuvchi yuzaki bellitristik asarlardan qat’iy ravishda ajratilishi kerak”. Bu g‘oyani chuqurligi romanga xos tafakkurning - hayot falsafasini teran tahlili bilan o‘lchanadi.

Epos tadqiqotchisi E.A. Karimov Gi de Mopassan (“Roman olamning falsafiy konsepsiyasi asosida yuzaga keladi”) ta’rifiga asoslanib, “Olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi yo‘q asar roman bo‘lolmaydi”,- deydi va davom etib yozadi: “Roman – bu olam va tarixga, jamiyat va bashariyatga, uning muammo va tashvishlariga, urush va sulhlariga, siyosiy va sinfiy jang – jadallariga, qo‘zg‘olon va inqiloblariga, ulkan va kichik voqealariga ochiq qaratilgan adabiy – badiiy sistema, yirik badiiy shakl. Faqat roman emas, romanda tasvirlangan bosh qahramon ham, uning qalb va fikri olamga, koinotga qaratilgan”.

---

<sup>21</sup> Белинский В. Г. Адабий орзулар. –Т.: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.



Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda professor Akram Kattabekov shunday xulosaga keladi: “Shunday qilib eng yaxshi romanlarga xos xususiyatlar:

1. Asarning obyekti sifatida xalq va jamiyat hayotida eng muhim sanalgan davrlar, voqealar va ko‘zga ko‘ringan shaxslar hayoti olinishi;

2. Tasvirlanayotgan davr va undagi voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan yozuvchi ilmiy - estetik konsepsiyasining bo‘rtib turishi lozimligi, davr ijtimoiy – siyosiy xarakteristikasini yaratish;

3. Yozuvchi bilan tasvir obyekti o‘rtasida jamiyat taraqqiyotining muhim etaplari bilan izohlanuvchi davriy masofaning mavjud bo‘lishi va nihoyat;

4. Tasvirlanayotgan voqealar va shaxslar hayotining chuqur badiiy tadqiq etilishi, tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga o‘tib chiqishi shart ekanligi kabilar bugungi kun romanlarini baholashda asosiy mezon bo‘la olishi mumkin”.

Darhaqiqat, badiiy asar tahlili o‘quvchini ma’naviyatli, chuqur hissiyotli, yetuk fazilatli bo‘lishga undaydi. Shuningdek, to‘g‘ri tashkil etilgan badiiy tahlil o‘quvchilarning kitobxon bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Roman janrining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda badiiy tahlil jarayonini uyushitirish juda murakkab jarayon ekanligi yuqoridagi fikrlarda o‘z isbotini topdi. Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu qismida O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini tahlil qilishning usullarini tavsiya qilishga harakat qilamiz.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani bilan umumta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu roman bilan tanishtirish jarayonida o‘quvchilarning e’tibori roman bilan bog‘liq bo‘lgan milliy qadriyatlarimiz, insonparvarlik va vatanparvarlik bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarga qaratilgani ma’qul.

“Ikki eshik orasi” romani 1986-yilda yozilgan bo‘lib, O‘tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Romanda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo‘r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u beradi. Ayniqsa, **urush** voqeligining har bir ota-ona qalbini

jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatlarini – **mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini** ko'rsatadi.

“Ikki eshik orasi” romanidagi **Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib** kabi obrazlar o'z individual qiyofasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'-e'tibori, eng og'ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch topishi bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan o'zbek qariyalariga o'xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi. Orif oqsoqol haqiqatgo'yiligi bois o'zi anglab yetgan bor haqiqatni yuzga aytishdan cho'chimaydi. Undagi jasorat va shijoat boshqalarga ilhom beradi. U odamlarga baho berganida xalqona ta'bir bilan “mard odamning belida belbog'i bo'lishi kerak” degan taomilga rioya qiladi. Atrofidagi odamlarning ruhiy butunligini, jo'mardligi va odamiyligini sadoqat, va'daga vafo, ezgu amallar bilan o'lchaydi. Ba'zan ayollarga ham shu o'lchov bilan yondashadi.

Romanda ayollar obrazi ham zo'r mahorat bilan tasvirlangan bo'lib, ular orasida Qora amma o'ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Qora amma obrazining aksariyat sifatleri romanning “Qora amma hikoyasi” qismida namoyon bo'ladi. **Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol.** Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o'zida yashashga kuch-qudrat topadi.

Bir tasavvur qiling: Qora amma olti farzandni yerga berib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin degan niyatda yolg'iz farzandi – Kimsanni urushga kuzatdi. Kimsanning peshonasiga urushda halok bo'lish bitilgan edi. Biroq Qora amma o'g'lining urushda o'lganiga ishonmadi; farzandining bir kunmas bir kun ota uyiga kirib kelishiga umid qilib yashadi. Shuning uchun aza ham ochgani yo'q. Bunday o'rinlarda ona qalbining naqadar bebaholigiga tan berasiz.

Qora ammaga taqdirning bu ko'rguliklari ham kamlik qiladi. Yolg'izgina ukasi Shomurodga Robiyani xotin qilmoqchi bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirish unga qanchalar qiyin kechadi, uning ichki his-tuyg'ulari, ruhiy holati har qanday insonni larzaga keltiradi. O'g'li Kimsanning oldida, qizi Robiyaning oldida ham o'zini gunohkor sezadi, ulardan tinimsiz kechirim so'raydi.


Romandagi yana bir ayol obrazi bor – Robiya. Unga ham taqdir kulib boqmasdi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg'ayadi. Onasining o'limidan so'ng ular Samarqanddan Toshkentga, No'g'ay qishloqqa ko'chib kelib, Husanboy ismli kishining hovlisida yashay boshlaydi. Otasi o'qituvchi bo'lgani uchun qishloq bolalarini o'qitadi. Robiya Husanboy Dumani bobo, uning xotini Qora ammani oyi, ularning o'g'li Kimsanni aka, Qora ammaning ukasi Shomurodni ada deb katta bo'ladi. Robiya sofdil, mehnatkash qiz bo'lib ulg'ayadi. U Kimsanga ko'ngil qo'ydi. Kimsan va Robiyaning sevgisi bir guli ochilmay so'ldi. Yurtda urush boshlangach, urushga ketgan sevgilisi qaytmadi.

Insonlarning murakkab taqdirini maromiga yetkazib tasvirlagan roman katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ushbu jihatlarga o'quvchilar e'tiborini qaratish uchun esa quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Badiiy tahlil, asosan, darslikda berilgan parcha yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham "Mening qahramonim" topshirig'ini bajarish mumkin bo'ladi. Masalan, o'quvchilarni uch yoki to'rt guruhga bo'lgan holda ularga quyidagi tarqatma topshiriqlarni berish mumkin.


## Mening qahramonim – Qora amma



**Qora ammaga tavsif:** \_\_\_\_\_ !

**Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol!**

## Mening qahramonim – Robiya



**Robiyaga tavsif:** \_\_\_\_\_ !

**Robiya - mehnatkash, sofdil, mehribon qiz!**

“**Meni hayajonga soldi...**” usuli orqali romanda o‘quvchilarni hayajonga solgan jihatlar haqida suhbat qurish mumkin. Bu usul orqali o‘quvchilarning roman bilan tanishish jarayonida ularni hayajonga solgan o‘rinlar, asar qahramonlarining xatti-harakatlari, jumlar haqida bahs yuritiladi. Har bir o‘quvchining shaxsiy xulosasi sinf taxtasiga yozib boriladi.

Masalan, birinchi o‘qituvchining o‘zi uni hayajonga solingan o‘rinni aytib berishi va misol tariqasida o‘quvchilarga ko‘rsatishi mumkin.


O‘qituvchi: “**Meni hayajonga soldi.** Oqsoqol Robiyaning juda och ekanligini bilib qoladi va o‘zining eng qadrli narsasini sotib bo‘lsa-da, uning qornini to‘ydirish uchun non olib kelganligi meni hayajonga soldi. Sodda dehqon oqsoqolning ushbu xatti-harakati uning naqadar mehribon, jonkuyar oliyjanob inson ekanligidan darak beradi. Shuningdek, urush davrining eng qiyin davrlarida ham o‘zbek xalqining *insonparvarlik, odamiylik* kabi fazilatlarni yo‘qotib qo‘ymaganligi meni hayajonga soldi.

O‘quvchi: Meni Husan Duma va Qora ammaning bag‘rikengligi hayajonga soldi. Qishloqlariga kelgan ustoz va uning qizini ochiq yuz bilan kutib olganligi, uyining to‘ridan joy berganligi ularning naqadar *mehribonligi, bag‘rikeng va jonkuyar* inson ekanligidan darak beradi.

O‘quvchi: Meni Robiyaning juda *mehnatkashligi va vafodorligi* hayajonga soldi. Uning butun kun davomida traktor haydashi, og‘ir mehnat qila turib ham uyga kelib yana kir yuvishi, o‘ziga qarashga vaqt topishi, shuncha mehnat qilishiga qaramasdan, jondan ortiq insoni uchun kashta tikishga ham vaqt ajratganligi meni hayajonga soldi.

Xuddi shunday o‘quvchilarning har biri asarni mutolaa qilish orqali o‘zlarini hayajonga solgan o‘rinlar, qahramonlarning hech kimnikiga o‘xshamaydigan fazilatlari haqida fikr bildirib, o‘z xulosalarini aytib o‘tadilar. Har bir xulosa sinf taxtasiga yozib borilganda, sinf taxtasida “Ikki eshik orasi” romanidagi qahramonlarning o‘zbekona milliy urf-odatlariga, milliy qadriyatlarimizga qay darajada hurmat bilan munosabatda bo‘lganligini, o‘zbek xalqining mana shunday

og'ir kunlarda ham o'zlarining insoniyligi-yu, mehnatkash, mehmondo'st, jafokash xalq ekanligi shundoqqina o'quvchining ko'z o'ngida namoyon bo'la boshlaydi.



Urush davrining qancha qiyinchiliklarni o'zbek xalqining boshiga solganligini, urushning oqibatlari nimalarga olib kelganligini, front va front ortidagi qiyinchiliklarni yanada yaxshiroq his ettirish uchun **“Taqqoslash”** usulidan foydalanish mumkin. Ushbu usul orqali Robiyaning bolaligi bilan hozirgi kunda yashab kelayotgan yosh avlodning bolaligini o'zaro solishtirish mumkin.

Ushbu romanni tahlil qilishda biz yuqorida **“Mening o'g'rigina bolam”** hikoyasida qo'llagan **“Nima uchun?”** usulidan ham foydalanish yaxshi natija beradi.

Romanning syujeti, qahramonlarning sifatlari tahlil qilingandan so'ng ushbu romandagi yozuvchining badiiy mahoratini, romanning badiiy tasviriy vositalar bilan qay darajda boyitilganligi, qahramonlarning ularning xarakterini ochib beruvchi nutqlariga ham o'quvchilar e'tiborini qaratish mumkin.

**Topshiriq.** Darslikda berilgan parcha tarkibidan o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqol, ibora va o'xshatishlarni toping va ularni quyidagi jadval kataklariga joylang.

| <b><i>Romanda uchraydigan badiiy tasviriy vosita</i></b>                                   | <b><i>Qaysi qahramonga xos</i></b> | <b><i>Qanday ma'noni bildirishga xizmat qilmoqda</i></b>   |
|--|------------------------------------|--|
| <i>Eriniyam nari oborib, beri opkeladi.</i>  | Bashoratxon                        | O'ta jahli tez, hech kimni ayamaydi.   |
| <i>Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab keta qol, desam ko'nmaganini ko'rmaysizmi?</i> | Shomurod tog'a                     | Mantiqsiz bahs-munozara qiluvchi, o'jar, tixir. Kajbahs odam.  |
| <i>Cholim ham o'z kindigini o'zi kesgan xilidan edi.</i>                                   | Husan Duma                         |  |
| <i>Cholimning jussasi kichkina bo'lsayam, yuragi otning kallasidek edi.</i>                | Husan Duma                         | Qo'rqmas, mard, botir.   |
| <i>Boshqa qiz bo'lsa etagini qoqardi-yu, bor-e deb bittasiga tegardi-ketardi.</i>          | Robiya                             |  |
| <i>Qaysi ona o'z yuragini o'zi sug'urib tuproqqa tashlaydi?</i>                            | Qora amma                          | Farzand onaning yuragiga qiyoslanmoqda, ona o'g'liga qilgan "xiyonat"ini o'z yuragini sug'urib tuproqqa tashlashga o'xshatmoqda. |

O'quvchilar mana shunday qilib ushbu ro'yxatni yana bir qancha badiiy tasviriy vositalar, o'xshatishlar, iboralar, o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqollar bilan to'ldirib borishlari mumkin. Ushbu jadval to'ldirilgach o'qituvchi o'quvchilardan ushbu tanlangan gaplarning romanning ta'sirchanligi, qahramonlar nutqining o'ziga xosligiga, xarakterni ochib berishdagi ahamiyati haqida so'raydi. Ushbu

suhbat orqali qahramonlar nutqiga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlarga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. Shuningdek, 10-sinfda Ona tili fanidan uslubiyat bog'liq bo'lgan mavzular o'rtasida o'zaro aloqadorlikni yuzaga chiqarishga, namunalar ko'rsatishga, o'quvchi nutqining uslubiy jihatdan boyib borishiga sababchi bo'ladi.

O'quvchilar adabiyot darslarida badiiy asar bilan tanishish jarayonida asosan romandan berilgan parcha bilan cheklanib qoladilar. Chunki ularda O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodiga bag'ishlangan dars bilan "Ikki eshik orasi" romanini o'rganishga bag'ishlangan dars oralig'ida juda qisqa vaqt mavjud. Ana shu darslar orasida, tabiiyki, o'quvchilar hajm jihatdan katta bo'lgan romanni o'qib, u bilan to'liq tanishib kelish imkoniyatiga ega emaslar. O'qituvchining asosiy vazifasi ham xuddi mana shu to'liq o'qishga bo'lgan ehtiyojni, qiziqishni, intilishni uyg'otishdir.



### III BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI

#### 3.1. TAJRIBA-SINOV MATERIALLARI

##### DARS ISHLANMASI

Mavzu: **G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi tahlili**

**Maqsad:**

**ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga G‘.G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining mazmuni haqida, asar qahramonlari, asarning yozilish davri haqida ma’lumot berish;

**tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarda iymon, e’tiqod, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish, ularni o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlar: mehmondo‘stlik, andisha, mehribonlik kabi sifatlar ruhida tarbiyalash;

**rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, badiiy tasviriy vositalar bilan nutqini boyitish, o‘zaro hurmat va muomala madaniyatini rivojlantirish.

**Darsda shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:** asar qahramonlariga munosabat bildira oladi, asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg‘ular xususida fikr yurita oladi, badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, berilgan matndan topib, ulardan tahlilda foydalana oladi.

**Kommunikativ kompetensiya:** ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida o‘zaro muloqotga kirisha oladi, muloqotda muomala madaniyatiga rioya qiladi, hamkorlikda va jamoada samarali ishlay oladi;

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish;

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:** doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual jihatdan rivojlantirib borish, kamolotga intilish hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish;

**Dars turi:** yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi

**Dars jihozi:** G‘. G‘ulom portreti, asar matniga mos keladigan rangli rasmlar,

**Dars metodi:** “Xotira mashqi”, “Nima uchun?”, “Bu kim? Bu nima? Bu qayer?”, “Nodir tashbehlar”, “Eng muhimi...”

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** o‘qituvchi o‘quvchi bilan salomlashadi, xonaning va o‘quvchilarning darsga hozirligini nazorat qiladi. Hozirgi oy va bugungi kun bilan bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy sanalar va yangiliklar haqida suhbat quradi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va guruhlar o‘zlari uchun nom tanlaydilar.

**II. O‘tilganlarni takrorlash:** o‘tilgan darsda G‘. G‘ulomning hayoti va ijodi bilan tanishtirilgan. Shu sababli **“Xotira mashqi”** usulidan foydalangan holda G‘. G‘ulomning hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar yodga olinadi.

O‘qituvchi slayd orqali **“1903-yil”**ni ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa ushbu ko‘rgan so‘zlarini izohlaydilar.

Keyin slayd orqali quyidagi so‘zlar ko‘rsatiladi.

|                     |                  |
|---------------------|------------------|
| Qo‘rg‘ontegi        | “Sog‘inish”      |
| 1914-yil            | “Onalar”         |
| “Netay”             | 1936-yil         |
| “Yodgor”            | 1943-yil         |
| “Tirilgan murda”    | 1966-yil 10-iyun |
| “Kuzatish”          | 1999-yil         |
| “Sen yetim emassan” | 100 yillik       |
| “Vaqt”              |                  |

Ushbu savol-javobda ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

O‘tilgan mavzu takrorlangach, o‘qituvchi yangi mavzu haqida ma’lumot beradi. Asarni o‘qib kelish o‘quvchilarga uyga berilgan bo‘ladi.

Biz Gʻafur Gʻulom hayoti toʻgʻrisida gapirganimizda uning ota-onadan yosh yetim qolgani, hayotning juda koʻp ogʻirliklarini boshidan kechirganini aytdik. Uning qator asarlari, jumladan, “Sen yetim emassan” sheʼri, “Shum bola” va “Netay” qissalarida ayni oʻsha kunlar asorati yaqqol sezilib turadi. Siz bu asarlar bilan yuqori sinflarda batafsil tanishasiz.

“Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasi bejiz “voqeiy hikoya” deb nomlanmagan. Chunki hikoyaga yozuvchi bolaligida guvoh boʻlgan hayotiy hodisa asos qilib olingan. Demak, u avtobiografik xarakterga ega.

Aslida biror odamning uyiga oʻgʻri tushishi favqulodda hodisa hisoblanadi. Lekin, guvohi boʻlganiningizdek, bu hikoyada yetimlar hovlisiga oʻgʻri oʻralashi sokin tarzda, goʻyo kundalik voqeadek bayon qilinadi. Nega shunday, degan savol oʻz-oʻzidan tugʻiladi? Bu savolga javobni esa asar hodisalari yuz bergan zamon tabiatidan izlash kerak.

1865-yil Qoʻqon xonligining taslim boʻlishi bilan Turkiston oʻlkasi toʻliq Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. Oʻlkani Rossiyadan kelgan, “general-gubernator” deb ataluvchi harbiy kimsalar idora qilardi. Ular oʻzlariga quloq soladigan odamlarni mingboshi, ellikboshi sifatida joylarga boshliq etib tayinladilar. Tugʻilish darajasi katta boʻlgan Turkiston oʻlkasida ishsizlik kuchayib borar, xalqning peshana teri evaziga yaratilgan boyliklar huzurini esa boshqalar koʻrardi.

Shu sharoitdan kelib chiqib, “Mening oʻgʻrigina bolam” hikoyasiga yondashsak, bilamizki, oʻgʻrilik bu oʻlkada oddiy hodisaga aylanib ulgurgan edi. Yurt tepasida turganlarning har kuni qilayotgan oʻgʻriligi oldida bir kambagʻal oilaga boshqa bir nochorning oʻgʻri sifatida tushishi favqulodda hodisa boʻlmay qolgandi.

#### **IV. Mustahkamlash:**

Oʻquvchilarga yangi mavzuni uyda oʻqib kelish topshirigʻi berilganligi sababli quyidagi usullardan foydalanib asardagi voqealar va qahramonlar tahlil qilinadi.

“**Bu kim? Bu nima? Bu qayer?**” usulida, avvalo, yo‘riqnoma bilan tanishtiriladi, ya’ni asardan olingan tafsilotlardan jumlar aytilib, kimga, nimaga va qayerga tegishli ekanligi so‘raladi. Buni kichik guruhlarda bajarish ham mumkin. Masalan:

Ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo‘lib, to‘rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Bu qayer?


Boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo‘ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kunduz kunlari garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o‘tib mizg‘iganday qush uyquasi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi. Bu kim?

Qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib ..... ga purkayman. ....day ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi. Bu nima?

“**Nodir tashbehlar**” usuli badiiy tahlilda o‘quvchining eng nozik qalb torlariga yetib borgan, uni ta’sirlantirgan o‘rinlardan o‘xshatishlar, topib aytilgan tamsillar, so‘z sehridan hayratlar, umuman, betakror jummalarni yig‘ib, fikrlash, zavqlarini ifodalash, bahslashishga undaydi.

Ushbu tashbehlarni ajratish uchun guruhlariga quyidagi ko‘rinishdagi tarqatmalar tarqatiladi.

Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring.



Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring. Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring. Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring.


bo‘lganligini hikoya matni ichidan topib, ushbu jadvalni to‘ldirish topshirig‘ini bajartiradi.


|               |  |
|---------------|--|
| ANDISHA       | <i>Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman</i>   |
| HAMDARDLIK    | <i>hov, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o‘g‘rigina bolam-a. Ha, mayli shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir</i>   |
| QO‘RQUV       | <i>(ey, buvim, tushmagur, soddasiz-da, sodda, – dedi o‘g‘ri. – Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘lridmaganda ham Sibir qilib yuboradi</i> |
| TOPQIRLIK     | <i>hamma ishning ham o‘z maromi bolar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman</i>  |
| NAFSGA QULLIK | <i>shunday qilib, desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam.</i>   |

|                        |   |
|------------------------|---|
|                        | <i>Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m pul jamg‘arib:<br/>“Topganimiz shu, ellikboshi ota”, deb pora bergan edim,<br/>rabochiyga ketishdan olib qoldi</i>  |
| MEHMONDO‘STLIK         | <i>qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket.</i>   |
| BAG‘RIKENGLIK          | <i>Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda<br/>osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik, shekilli, shundoq<br/>katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim<br/>qolib turibdi</i>                      |
| YAXSHI NIYAT<br>QILISH | <i>-ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana<br/>katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik<br/>qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin.<br/>To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik.</i> |

Ushbu hikoyada yuz bergan voqealarning asosiy sababini aniqlash uchun quyidagi topshiriq bajariladi.

“NIMA UCHUN?” savoliga javob berishni guruh bilan birgalikda o‘ylab, o‘zlarining fikr-mulohazalarini aytib o‘tadilar. “Nima uchun?” usuli muammo yoki asardagi biror asosiy fikrning sabab va yechimlarini izlashga «nima uchun?» degan uzun yo‘l orqali borishni talab etadi. Bu «yo‘l» qancha uzoq bo‘lsa, asar mazmuniga, undan olinajak badiiy zavqqa shuncha yaqinlashamiz. Tahlil jarayonida o‘quvchilarning barcha javoblari qabul qilinishi kerak. Muhimi, ular matni o‘rganishga kirishib ketadilar, mustaqil fikrlaydilar hamda o‘z fikrlarini asoslaydilar.





Badiiy asar tahlilini xulosalash jarayonida fikr almashishda «**Eng muhimi...**» usuli qo‘l keladi. Bunda o‘quvchilar asardagi o‘zlari uchun eng muhim deb bilgan jihatlarni aytadilar va nima uchun muhim deb topganlarini sharhlaydilar.

| ENG MUHIMI |
|------------|
| _____      |
| _____      |
| _____      |
| _____      |
| _____      |

**V. Baholash:** Guruhlar yig‘gan ballar hisoblanib, guruhlar va o‘quvchilar baholanadi, g‘oliblar rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa:** “Qora buvi”ning chinakam o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan fazilatlari haqidagi fikrlaringizni yozib keling.

## Mavzu: “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishish

(10-sinf o‘quvchilari uchun)

### **Maqsad:**

**ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani haqida, unda tasvirlangan voqealar hamda qahramonlar haqida ma’lumot berish, roman tahlilini uyushtirish;

**tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni vatanparvar, insonparvar va mehnatsevar qilib tarbiyalash, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

**rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, badiiy tasviriy vositalar bilan nutqini boyitish, o‘zaro hurmat va muomala madaniyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o‘rgatish.

### **Darsda shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:** asar qahramonlariga munosabat bildira oladi, asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg‘ular xususida fikr yurita oladi, badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, berilgan matndan topib, ulardan tahlilda foydalana oladi.

**Kommunikativ kompetensiya:** ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida o‘zaro muloqotga kirish oladi, muloqotda muomala madaniyatiga rioya qiladi, hamkorlikda va jamoada samarali ishlay oladi;

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish;

**O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:** doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual jihatdan rivojlantirib borish, kamolotga intilish hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish;

**Dars turi:** yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** “Mening qahramonim”, “Meni hayajonga soldi...”, “Taqqoslash” usullari




**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** O‘.Hoshimov portreti, urush yillari tasvirlangan videolavhalar, rangli fotosuratlar, mavzu yuzasidan tayyorlanga slayd, videoprojektor, jadval, rag‘bat kartochkalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** o‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi, sinf xonasining va o‘quvchilarning darsga tayyorligini nazorat qiladi. Bugungi kun va oy bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumot asosida suhbat quriladi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi.

**II. O‘tilganlarni takrorlash:** O‘. Hoshimov hayoti va ijodini o‘zlashtirish uy vazifasiga berilganligi sababli guruhlar ushbu yozuvchining hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi topshiriqni bajaradilar.

**1-topshiriq. Turli manbalardan foydalanib, O‘tkir Hoshimovning quyidagi asarlarini janrlar bo‘yicha tavsiflang va jadvalga raqamlarni joylang.**



|                  |  |  |  |  |  |  |
|------------------|--|--|--|--|--|--|
| <i>Hikoyalar</i> |  |  |  |  |  |  |
| <i>Romanlar</i>  |  |  |  |  |  |  |
| <i>Qissa</i>     |  |  |  |  |  |  |
| <i>Drama</i>     |  |  |  |  |  |  |

**III. Yangi mavzu bayoni:**

O‘qituvchi “Ikki eshik orasi” romani tahliliga kirishishdan oldin undagi davr voqealari haqida ma‘lumot beradi.

“Ikki eshik orasi” romani 1986-yilda yozilgan bo‘lib, O‘tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Romanda insonlar taqdiri va

inson umrining murakkabligi zo‘r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u beradi. Ayniqsa, **urush** voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatlari – **mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini** ko‘rsatadi.

“Ikki eshik orasi” romanidagi **Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib** kabi obrazlar o‘z individual qiyofasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e‘tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi. Orif oqsoqol haqiqatgo‘yiligi bois o‘zi anglab yetgan bor haqiqatni yuzga aytishdan cho‘chimaydi. Undagi jasorat va shijoat boshqalarga ilhom beradi. U odamlarga baho berganida xalqona ta’bir bilan “mard odamning belida belbog‘i bo‘lishi kerak” degan taomilga rioya qiladi. Atrofidagi odamlarning ruhiy butunligini, jo‘mardligi va odamiyligini sadoqat, va’daga vafo, ezgu amallar bilan o‘lchaydi. Ba’zan ayollarga ham shu o‘lchov bilan yondashadi.

#### **IV. Mustahkamlash:**

Roman tahlili amalga oshirish boshlanganda eng avvalo ushbu topshiriqni bajaradilar.

“Mening qahramonim” topshirig‘ini bajarish uchun o‘quvchilarni uch yoki to‘rt guruhga bo‘lgan holda ularga quyidagi tarqatma topshiriqlarni berish mumkin.

## Mening qahramonim – Qora amma

|  |   |  |
|--|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"><li>• Muzaffar, qo'li og'riyotgan</li><li>• bo'lsa kerak, ingraydi.</li><li>• uyqusida cho'chib pinjimga</li><li>• kiradi. ana, yana seskanib</li><li>• tushdi. ko'zini ochib,</li><li>• atrofga olazarak qaradi.</li><li>• Qo'rqib ketaman...</li><li>• -Qo'rqma, bolam, men borman-ku. Uxla...</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Alvasti ko'prikdan</li><li>• o'tayotganimda yuragim</li><li>• yana hovliqdi. O'lsin.</li><li>• Xosiyatsiz joy! urush</li><li>• paytida Robiyaga ham shu</li><li>• ko'prikda ajina daf qilgan...</li><li>•</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Qizim bechoragaym qiyin.</li><li>• Erta ketadi, kech keladi.</li><li>• qiz bola boshi bilan traktor</li><li>• haydaydi. Bashoratxon</li><li>• o'zi yaxshi juvon-ku, jahli</li><li>• tezroq. Achchig'i chiqsa,</li><li>• eriniyam nari oborib, beri</li><li>• opkeladi. nima qilsayam</li><li>• brigad-da. Qolaversa,</li><li>• Oqsoqoldek odam yarim</li><li>• kechagacha daladan</li><li>• chiqmaganidan keyin o'zini</li><li>• u yoqqa - bu yoqqa</li><li>• tashlashga uyaladi-da</li><li>• kishi...</li></ul> |
|--|---|--|

**Qora ammaga tavsif:** \_\_\_\_\_ !

**Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol!**

## Mening qahramonim – Robiya

|  |  |  |
|--|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"><li>• Bir kuni uyimizga ancha</li><li>• odam yig'ildi. Olacha to'n</li><li>• kiygan kishilar, oppoq</li><li>• ko'ylak kiyib, boshiga oq</li><li>• ro'mol o'ragan xotinlar...</li><li>• Hamma uvvos soldi. Dadam</li><li>• boshimni ko'ksiga</li><li>• bosgancha yig'lab o'tirdi.</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Qizim bechoragaym qiyin.</li><li>• Erta ketadi, kech keladi. qiz</li><li>• bola boshi bilan traktor</li><li>• haydaydi. Bashoratxon o'zi</li><li>• yaxshi juvon-ku, jahli tezroq.</li><li>• Achchig'i chiqsa, eriniyam</li><li>• nari oborib, beri opkeladi.</li><li>• nima qilsayam brigad-da.</li><li>• Qolaversa, Oqsoqoldek</li><li>• odam yarim kechagacha</li><li>• daladan chiqmaganidan</li><li>• keyin o'zini u yoqqa - bu</li><li>• yoqqa tashlashga uyaladi-da</li><li>• kishi...</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Nima deyayotganini biladimi</li><li>• oyim? Axir ... Kimsan akam</li><li>• mening qaylig'im bo'lsa,</li><li>• oyimning o'g'li-ku! Kimsan</li><li>• akam hammadan ko'ra</li><li>• oyimga yaqin-ku. Nim jin</li><li>• urdi?</li><li>• Bilaman . Shomurod</li><li>• tog'amga osonmas.</li><li>• Muzaffargayam qiyin. Lekin</li><li>• menga begona odam emas,</li><li>• kelib-kelib o'zimning oyim</li><li>• shu gapni aytsa, qandoq</li><li>• chidayman?! "Oyi" deb shu</li><li>• xotinning etagidan</li><li>• ushlagandim-ku axir!</li></ul> |
|--|--|--|

**Robiyaga tavsif:** \_\_\_\_\_ !

**Robiya - mehnatkash, sofdil, mehribon qiz!**

“**Meni hayajonga soldi...**” usuli orqali romanda o‘quvchilarni hayajonga solgan jihatlar haqida suhbat quriladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning roman bilan tanishish jarayonida ularni hayajonga solgan o‘rinlar, asar qahramonlarining xatti-harakatlari, jumlar haqida bahs yuritiladi. Har bir o‘quvchining shaxsiy xulosasi sinf taxtasiga yozib boriladi.

Masalan, birinchi o‘qituvchining o‘zi uni hayajonga solingan o‘rinni aytib berishi va misol tariqasida o‘quvchilarga ko‘rsatishi mumkin.


O‘qituvchi: “**Meni hayajonga soldi**”. Oqsoqol Robiyaning juda och ekanligini bilib qoladi va o‘zining eng qadrli narsasini sotib bo‘lsa-da, uning qornini to‘ydirish uchun non olib kelganligi meni hayajonga soldi. Sodda dehqon oqsoqolning ushbu xatti-harakati uning naqadar mehribon, jonkuyar oliyjanob inson ekanligidan darak beradi. Shuningdek, urush davrining eng qiyin davrlarida ham o‘zbek xalqining *insonparvarlik, odamiylik* kabi fazilatlarni yo‘qotib qo‘ymaganligi meni hayajonga soldi.

O‘quvchi: Meni Husan Duma va Qora ammaning bag‘rikengligi hayajonga soldi. Qishloqlariga kelgan ustoz va uning qizini ochiq yuz bilan kutib olganligi, uyining to‘ridan joy berganligi ularning naqadar *mehribonligi, bag‘rikeng va jonkuyar* inson ekanligidan darak beradi.

O‘quvchi: Meni Robiyaning juda *mehnatkashligi va vafodorligi* hayajonga soldi. Uning butun kun davomida traktor haydashi, og‘ir mehnat qila turib ham uyga kelib yana kir yuvishi, o‘ziga qarashga vaqt topishi, shuncha mehnat qilishiga qaramasdan, jondan ortiq insoni uchun kashta tikishga ham vaqt ajratganligi meni hayajonga soldi.

Xuddi shunday o‘quvchilarning har biri asarni mutolaa qilish orqali o‘zlarini hayajonga solgan o‘rinlar, qahramonlarning hech kimnikiga o‘xshamaydigan fazilatlari haqida fikr bildirib, o‘z xulosalarini aytib o‘tadilar. Har bir xulosa sinf taxtasiga yozib borilganda, sinf taxtasida “Ikki eshik orasi” romanidagi qahramonlarning o‘zbekona milliy urf-odatlariga, milliy qadriyatlarimizga qay darajada hurmat bilan munosabatda bo‘lganligini, o‘zbek xalqining mana shunday

og'ir kunlarda ham o'zlarining insoniyligi-yu, mehnatkash, mehmondo'st, jafokash xalq ekanligi shundoqqina o'quvchining ko'z o'ngida namoyon bo'la boshlaydi.



Urush davrining qancha qiyinchiliklarni o'zbek xalqining boshiga solganligini, urushning oqibatlarini nimalarga olib kelganligini, front va front ortidagi qiyinchiliklarni yanada yaxshiroq his ettirish uchun **“Taqqoslash”** usulidan foydalanish mumkin. Ushbu usul orqali Robiyaning bolaligi bilan hozirgi kunda yashab kelayotgan yosh avlodning bolaligini o'zaro solishtirish mumkin.

Ushbu romanni tahlil qilishda biz yuqorida **“Mening o'g'rigina bolam”** hikoyasida qo'llagan **“Nima uchun?”** usulidan ham foydalanish yaxshi natija beradi.

Romanning syujeti, qahramonlarning sifatlari tahlil qilingandan so'ng ushbu romandagi yozuvchining badiiy mahoratini, romanning badiiy tasviriy vositalar bilan qay darajda boyitilganligi, qahramonlarning ularning xarakterini ochib beruvchi nutqlariga ham o'quvchilar e'tiborini qaratish mumkin.

**Topshiriq.** Darslikda berilgan parcha tarkibidan o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqol, ibora va o'xshatishlarni toping va ularni quyidagi jadval kataklariga joylang.

| <b>Romanda uchraydigan badiiy tasviriy vosita</b>  | <b>Qaysi qahramonga xos</b> | <b>Qanday ma'noni bildirishga xizmat qilmoqda</b>  |
|--|-----------------------------|--|
| <i>Eriniyam nari oborib, beri opkeladi.</i>  | Bashoratxon                 | O'ta jahli tez, hech kimni ayamaydi.   |
| <i>Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab keta qol, desam ko'nmaganini ko'rmaysizmi?</i> | Shomurod tog'a              | Mantiqsiz bahs-munozara qiluvchi, o'jar, tixir. Kajbahs odam.  |
| <i>Cholim ham o'z kindigini o'zi kesgan xilidan edi.</i>                                   | Husan Duma                  |  |
| <i>Cholimning jussasi kichkina bo'lsayam, yuragi otning kallasidek edi.</i>                | Husan Duma                  | Qo'rqmas, mard, botir.   |
| <i>Boshqa qiz bo'lsa etagini qoqardi-yu, bor-e deb bittasiga tegardi-ketardi.</i>          | Robiya                      |  |
| <i>Qaysi ona o'z yuragini o'zi sug'urib tuproqqa tashlaydi?</i>                            | Qora amma                   | Farzand onaning yuragiga qiyoslanmoqda, ona o'g'liga qilgan "xiyonat"ini o'z yuragini sug'urib tuproqqa tashlashga o'xshatmoqda. |

O'quvchilar mana shunday qilib ushbu ro'yxatni yana bir qancha badiiy tasviriy vositalar, o'xshatishlar, iboralar, o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqollar bilan to'ldirib borishlari mumkin. Ushbu jadval to'ldirilgach o'qituvchi o'quvchilardan ushbu tanlangan gaplarning romanning ta'sirchanligi, qahramonlar nutqining

o'ziga xosligiga, xarakterni ochib berishdagi ahamiyati haqida so'raydi. Ushbu suhbat orqali qahramonlar nutqiga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlarga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. Shuningdek, 10-sinfda Ona tili fanidan uslubiyat bog'liq bo'lgan mavzular o'rtasida o'zaro aloqadorlikni yuzaga chiqarishga, namunalar ko'rsatishga, o'quvchi nutqining uslubiy jihatdan boyib borishiga sababchi bo'ladi.

**V. Baholash:** guruhlar o'zlari yig'gan rag'bat kartochkalari asosida baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa:** "Mening bolalik xotiralarim" mavzusida ijodiy matn yozing.

### 3.2. TAJRIBA – SINOV ISHLARI BO'YICHA TAHLIL

Avvalo, epik asarlarni tahlil qilish usullarini tavsiya etishdan oldin biz o'quvchilarda mavjud bo'lgan badiiy asarlarni tahlil qilishga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning bugungi kundagi holatini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 319-maktabning 10-"A" sinfida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov boshida 10-"A" sinf o'quvchilaridan 25 nafari bilan individual va jamoaviy tarzda suhbatlar, so'ngra berilgan badiiy asarlarni tahlil qilish, qahramonlarga tavsif berish, badiiy tasviriy vositalarni aniqlash, badiiy asarda tasvirlangan voqealarning o'sha davr voqealari bilan bog'liqligi, asar qahramonlarining fazilatlari hamda illatlari aniqlash va xulosa chiqarish kabi topshiriqlarni bajardilar.

Tajriba-sinov boshida 10-"A" sinf o'quvchilaridan 25 nafari, tajriba-sinov oxirida 29 nafaridan nazorat ishi olindi.

Biz tavsiya etgan usullar, o'tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so'ng o'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish, qahramonlarga tavsif berish, badiiy tasviriy vositalarni aniqlash, badiiy asarda tasvirlangan voqealarning o'sha davr voqealari bilan bog'liqligi, asar qahramonlarining fazilatlari hamda illatlari aniqlash va xulosa chiqarishga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan oldingi topshiriqlarga o'xshash topshiriqlardan iborat

bo'lgan nazorat ishlarini olish tashkillashtirildi. Ushbu nazorat ishlari 29 nafar o'quvchi bilan olib borildi.

Biz ushbu matematik tahlil natijalarini o'zaro solishtirish imkoniyatini yuzaga keltirish maqsadida quyidagi jadvalga joylashga harakat qildik.

| O'quvchilar soni | O'zlashtirish darajalari (foiz hisobida, birinchi natija) |       |        |
|------------------|---|-------|--------|
|                  | Yuqori  | O'rta | Quyi   |
| 27               | 23 %  | 62 %  | 15 %   |
| O'quvchilar soni | O'zlashtirish darajalari (foiz hisobida, keyingi natija)  |       |        |
|                  | Yuqori  | O'rta | Quyi   |
| 29               | 41,2 %  | 43 %  | 15,8 % |

Ko'rinib turibdiki, tajribadan keyingi o'zlashtirish darajalari tajribadan oldingi o'zlashtirish darajalaridan yuqori. Demak, biz tavsiya qilayotgan usullar ta'lim jarayonida o'zining samarasini ko'rsata oladi.



## XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimiz “O‘quvchilarda epik asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari” mavzusida bo‘lib, biz unda adabiyot darslarida epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslariga oid bo‘lgan ilmiy va nazariy qarashlarni yoritishga, epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilganmiz. Shuningdek, epik asarlarga tegishli bo‘lgan o‘ziga xoslikni inobatga olgan holda tavsiya qilgan usullarimiz asosida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazdik hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligini o‘rganishga harakat qilganmiz.

Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bo‘limi **“Adabiyot darslarida epik asarlarni tahlil qilishning ilmiy va metodik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, biz unda badiiy asar tahlilining ikki turi: o‘quv va didaktik tahlilning tamoyillari hamda epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me‘yoriy asoslarini yoritishga harakat qildik.

Eng avvalo, o‘quv didaktik tahlilning tamoyillari o‘rganilganda badiiy asarning tahlili olib borilayotganda har qanday tahlilning tugal bo‘lmasligi tamoyiliga, har qanday ilmiy tahlil faqat shaxsiy fikr ifodasi bo‘lib, u hech qachon mutlaq haqiqatlik da‘vosini qilishi mumkin emasligi tamoyiliga, san‘at asarining estetik hodisa ekanligidan kelib chiqib, unga biror g‘oyani ifodalash vositasigina deb qarash mumkin emasligi tamoyiliga, san‘at hodisalariga borliqning nusxasi tarzida munosabatda bo‘lish kerakligi tamoyiliga, emotsionallik yoki hissiylik tamoyiliga, yaxlitlik, tizimlilik, tarixiylik, estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga rioya qilish zarurligi bilan tanishdik.

Shunga ko‘ra badiiy asarni tahlil qilish jarayoni murakkab jarayon ekanligi, ushbu jarayonda badiiy asarni tahlil qilish tamoyillarini bilish hamda ushbu tamoyillarni yodda tutgan holda tahlil jarayonini olib borish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik.

Bitiruv malakaviy ishimizning “Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me‘yoriy asoslari” deb nomlangan qismida epik asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega ekanligi, asarning tur va janri

uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'lishi haqidagi ilmiy va amaliy ma'lumotlar bilan tanishdik. Tanishgan ma'lumotlarimiz asosida epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko'lamdor va ko'p bosqichli jarayon ekanligiga, epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqeabandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egaligi, qaysi janrda bo'lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda qahramonlarning bo'lishi, ular ozdir-ko'pdir voqealar qo'ynida tasvirlanishi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar tasviri asnosida namoyon bo'lib borishiga e'tiborni qaratdik.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobi **“Epik asarlarni tahlil qilishning usullari”** deb nomlangan bo'lib, unda epik turga mansub bo'lgan hikoya, qissa va roman janriga oid bo'lgan asarlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha usul va tavsiyalarimizni berishga harakat qildik.

Hikoya janriga oid bo'lgan asarlar tahlilini amalga oshirishda hikoya janrining adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati quyidagi uch yo'nalish: tekstual tahlil, timsoliy tahlil, muammoli tahlil yo'nalishida uyushtirilishi mumkinligi haqida ma'lumot berdik.

Hikoya janriga oid bo'lgan asarlarni tahlil qilish usullarini G'afur G'ulomning “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasi misolida ko'rsatib berishga urindik. O'qituvchi o'quvchilarining tayyorgarligi ruhiy-aqliy darajasini hisobga olib, tahlilga chuqurroq kirishga undaydigan o'z savol-topshiriqlarini va darslik mualliflarining yo'naltiruvchi savollaridan foydalanishi mumkinligi, buning uchun “Bu kim, bu nima, bu qayer?”, “Nodir tashbehlar”, hikoya mazmunidan anglashiladigan insonlarga xos bo'lgan fazilatlar hamda illatlarning namoyon bo'lish o'rinlarini aniqlashga qaratilgan jadvalni to'ldirish, “Nima uchun?”, “Eng muhimi...” kabi usullarni tavsiya qilganmiz.

Bitiruv malakaviy ishimizning “Qissa janriga oid bo'lgan asarlar tahliliga innovatsion yondashuv” qismida esa qissa janrining o'ziga xos xususiyatlari hamda uni tahlil qilishning innovatsion usullarini ko'rsatishga harakat qildik.

Ushbu o‘rinda Ch. Aytmatovning “Oq kema” qissasi tahliliga alohida to‘xtalishga qaror qildik. O‘quvchilarning asar matni bilan to‘liq tanishgan yoki tanishmaganligini tekshirish uchun “Mushohada” usulidan, o‘qituvchi bolakay obrazini kengroq va chuqurroq ochib berish maqsadida “Ibtido va intiho” usulidan, tushunchalarni izohlash” usulidan, asar qahramonlari xarakterini ochib berish uchun “Men kimman?” usulidan, asar matni bilan bog‘liq bo‘lgan savol va topshiriqlar bilan ishlash qismida “O‘n ikki oy bir yilda” usulidan foydalanishni tavsiya qildik.

“Roman janriga oid bo‘lgan asarlarni tahlil qilishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish usullari” qismida esa katta hajmga ega bo‘lgan epik asarlarni tahlil qilishning murakkab tomonlari hamda o‘ziga xosliklari haqida nazariy ma’lumotlarni berdik. Shuningdek, ushbu bo‘limda romanlarni tahlil qilishning bir qancha usullarini O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini tahlil qilish misolida ko‘rib chiqdik. Asar qahramonlarining namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan sifatlarini yaqqolroq namoyon bo‘lishi uchun “Mening qahramonim” usulidan, romanda ro‘y bergan voqealar hamda qahramonlarning xatti-harakatlariga nisbatan o‘quvchilarning shaxsiy fikrini aniqlash uchun “Meni hayajonga soldi...” usulidan, urush davrining qancha qiyinchiliklarni o‘zbek xalqining boshiga solganligini, urushning oqibatlari nimalarga olib kelganligini, front va front ortidagi qiyinchiliklarni yanada yaxshiroq his ettirish uchun “Taqqoslash” usulidan foydalanish mumkinligi aytib o‘tilgan.

Bitiruv malakaviy ishimizning uchinchi “Tajriba-sinov ishlari samaradorligi” bobida yuqorida biz tavsiya qilgan usullarimiz asosida badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonlarini amaliyotda qo‘llab ko‘rganmiz. 5-sinfda “Mening o‘g‘rigina bolam” hamda 10-sinfda “Ikki eshik orasi” romani bilan tanishish” mavzulari yordamida tajriba – sinov ishlarini amalga oshirdik. O‘tkazilgan tajriba – sinov ishlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini jadvallar asosida foiz ko‘rsatkichlarida ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Umuman olganda, badiiy asarni tahlil qilishning tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan har qanday tahlil o‘quvchining adabiy ta’lim jarayonida,

badiiy asarni o‘qib-o‘zlashtirishda, badiiyatga daxldor nazariy ma’lumot va tushunchalarni shakllantirishda, shu asnoda ma’naviy barkamol shaxslarni tarbiyalashda, o‘quvchilar qalbida badiiyatga, nafosatga, ezgulikka muhabbat uyg‘otishda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda birlamchi vazifani bajaradi degan xulosaga keldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон.
5. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). - Toshkent. 2016.
6. Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
7. Xalq so‘zi gazetasi. 2016-yil 15-sentabr, 182 (6617)-soni.
8. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак. 2016.
9. Борев Ю. Методология анализа художественного произведения. Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари мавзусидаги конференция материаллари. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – С. 33.
10. Белинский В. Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
11. Белинский В. Г. Поезиянинг хил ва турларга бўлиниши. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
12. Верклер А. Генри. Герменевтика. Gospel literature services, Schaumburg, Illinois, USA, 1995. – С. 55.

13. Adabiyot. Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1- qism, 3-nashri //S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – Toshkent: Sharq, 2015. – 176 b.
14. Adabiyot. Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: Sharq, 2013. – 368 b.
15. Adabiyot. Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik-majmua. 2-qism / B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova . – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.
16. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
17. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 39 б.
18. Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1991. 382 б.
19. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 560 б.
20. Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010. 397 б.
21. Хусанбоева Қ. Адабиёт-маънавият мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. - 368 б.
22. Хусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. -Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2013. – 432 б.
23. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 312 б.
24. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar: Umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Bilim, 2003, – 144 b.

25. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: 1996. – 302 б.
26. Миркосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. док. ... дисс. –Тошкент: 1995. – 253 б.
27. Миркосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари: Монография. – Тошкент: Фан, 2006. – 114 б.
28. Зуннунов А. , Ҳотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 334 б.
29. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Янги аср авлоди, – Тошкент: 2006. – 182 б.
30. J.Michael Spector: Foundations of Educational Technology: Integrative Approaches and Interdisciplinary Perspectives. 2016.
31. Chingiz Aytmatov. Oq kema: qissa. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – 152 bet.
32. <http://www.edu.uz/>
33. <http://ziyo.edu.uz/>
34. <http://ziyoNet.uz>
35. [http:// kitob.uz](http://kitob.uz)